جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid


2024-yil 20-sentyabr
№ 39(39)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

ARMINIY VAMBERI

o‘zbek diyori va allomalari haqida

“...Islom olamida yagona toza buloq kabi saqlanib kelayotgan O‘rta Osiyoni, Xiva, Buxoro va Samarqandning tabarruk ziyoratgohlarini ko‘rish azaliy orzuyim edi...”



(4-sahifada o‘qing).

TAMADDUN

O‘TMISH VA KELAJAK TUTASHGAN NUQTADA



Tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Ahmadali Asqarov bilan ilk suhbatimiz gazetamizning avvalgi sonlaridan birida e’lon qilingan edi. Unda Namangan viloyatidagi Uchtepa qadimiy yodgorligida olib borilayotgan ishlar, Haylam yodgorligi tarixi, uning topilishi haqida so‘z yuritilgandi. Muhtaram olimimiz bilan bu galgi muloqotimiz turkiy davlatlarning shonli tarixi hamda ayni paytda xorijlik arxeologlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan tadqiqotlar mavzusidan boshlandi.

– Hurmatli ustoz, siz arxeologiya sohasidagi xizmatlaringiz uchun TWESCO – Xalqaro Turk akademiyasining maxsus oltin medali bilan taqdirlangansiz. Xo‘sh, turkiy davlatlar arxeologlarining hamkorligi bugun qay darajada? Qadimda turkiylar yagona hududda yashaganlarmi? Hozir aniqlanayotgan topilmalar orasida bunga doir dalillar bormi?

– Muhtaram Prezidentimizning sa’y-harakatlari tufayli turkiy davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari har jihatdan mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, turkiy davlatlar arxeologlari o‘rtasidagi hamkorlik ham faollashmoqda. Masalan, xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazish, kitoblar chop etish ishlari shular sirasidandir. Ammo qo‘shma arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etish masalasida iqtisodiy qiyinchiliklar borligini ta’kidlash joiz. Bu borada xitoylik arxeologlar tashabbusi bilan arxeologik izlanishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Janubi-g‘arbiy Xitoy universiteti arxeologlari bilan O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston arxeologlari hamkorligida Farg‘ona yo‘lagi bo‘yicha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. 2023-yili ekspeditsiya Namangan viloyati hududida izlanishlar olib bordi.

Qadimda turkiy davlatlar yagona hududda yashagan davrlar bo‘lganmi, degan savolga kelganda, aytish joizki, turkiy qabila va elatlarning ilk vatani Yevroosiyoning shimoliy dasht zonalari, ya’ni Qora dengizning shimoli-sharqidan Chukotkagacha bo‘lgan dasht va tog‘li hududlar – Janubiy Sibir, Enasoy havzalari, Tog‘li Oltoy, Janubi-sharqiy Tyanshan, Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlaridir.

(Davomi 2-sahifada).

MUNOSABAT

MILLAT IFTIXORIGA AYLANGAN DAHO

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakat ziyolilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlardan birida Mirzo Ulug‘bekka baho berar ekan, “Qaysi millat, qaysi xalq Mirzo Ulug‘bekday siymosi borligi bilan g‘ururlana oladi, uning buyuk ishlari bilan faxrlana oladi?”, deb ta’kidlagan edi. Jahonda o‘zining ilmiy kashfiyotlari bilan tabiat va jamiyat qonunlarini ochib bergan olim va tadqiqotchilar son-sanoqsiz. Lekin insoniyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan daholikka da’vogar shaxslar ko‘p emas.




Mirzo Ulug‘bek hech shubhasiz, ana shunday xalqaro miqyosda tan olingan daho hisoblanadi. Prezidentimiz Mirzo Ulug‘bekka baho berganida aynan shuni nazarda tutgan edi.

Mana bir necha asrdan beri Mirzo Ulug‘bek vatanimizni dunyoga tanitib kelmoqda. Uning bunday roli, ayniqsa mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Haqiqatdan ham dunyo xaritasida 1991-yilda paydo bo‘lgan yangi davlatda qanday xalq yashaydi, ular kimning vorislari, degan savolga “Biz Ahmad Farg‘oniyning, Muhammad Xorazmiyning, Abu Rayhon Beruniyning, Ibn Sinoning va, albatta, Mirzo Ulug‘bekning avlodlarimiz” deb baralla gapirish imkoniga ega bo‘ldik. Ulug‘ ajdodlarimiz qatorida ham buyuk davlat arbobi va islohotchi, qomusiy olim, ustoz hamda iqtidorli bunyodkor bo‘lgan Mirzo Ulug‘bekning o‘rni alohida.

Yurtimizdagi ko‘plab aholi yashash maskanlari, ta’lim muassasalari, jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti, poytaxtimizdagi yirik tuman Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atalgan. Mamlakatimiz va xorijda uning muazzam haykallari o‘rnatilgan.

(Davomi 2-sahifada).

FESTIVAL



KITOB – BITMAS XAZINA

Kuzning salqin nafasi ufurib turgan Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida joylashgan “Green Hills Resort” dam olish maskaniga kirib borar ekanmiz, uzun yo‘lning ikki chetiga qator joylashtirilgan “Bitmas xazina” kitob ko‘rgazma-yarmarkasi va bu rastalarga terilgan turli hajmdagi, turfa yoshdagi kitobxonlarga mo‘ljallangan rang-barang katta-kichik, mo‘jaz kitoblarning betakror ranglar jilosi ko‘zni qamashtirdi. Maktab o‘quvchilari, talabalar, festival ishtirokchilari kitoblarni qiziqib tomosha qilishar, o‘zaro qizg‘in fikr almashishardi.

Tadbirning ochilish marosimidan so‘ng “Mualliflik huquqi va tarjima masalalari”ga bag‘ishlangan konferensiya boshlandi. Unda Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti bosh mutaxassisi Akmal Akramov, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov, O‘zbekiston xalq yozuvchi Erkin A’zam, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Xurshid Do‘stmuhammad, yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshev, noshir Firuz Allayev va boshqa ishtirokchilar fikr-mulohazalari hamda takliflarini bildirib o‘tishdi.

(Davomi 8-sahifada).

SHUKUH

VATAN KO‘NGILDADIR, KO‘NGIL VATANDA



Davlatimiz rahbari prezidentlik lavozimiga kirishgach, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan ishlash va muloqot qilish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi.

Buning huquqiy asosi sifatida 2018-yil 25-oktyabrda “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror imzolandi.

Mazkur hujjat bugun bu yo‘nalishda qo‘lga kiritilgan yutuq va muvaffaqiyatlarimiz asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan muntazam muloqot olib borish, o‘zaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish, Yangi O‘zbekiston islohotlarida ularning ishtirokini ta’minlash, xususan, qalbida Vatan va yurtga daxldorlik hissini kuchaytirish bo‘yicha samarali ishlar olib borildi. Vatandoshlarimiz huquq va manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

(Davomi 5-sahifada).

KUN MAVZUSI

“QARS IKKI QO‘LDAN... QARZ-CHI?”

Yoxud qarmoqni ham ishtiyoqmand ovchiga berish kerak

...Tog‘amning o‘g‘li harbiy xizmatdan keyin ma’lum muddat yo‘l qurilishi idorasida ishladi, ammo qatnab ishlash joniga tegdimi bir kunda bo‘shadi. Mana o‘n besh yillar bo‘ldi, biror korxona yoki tashkilotda ishlamaydi.

Yaqinda kelin tushirdi, el qatori to‘y berdi. Besh yil oldin yangi rusumdagi yengil mashina ham olgandi. Yana uch nafar farzandi ham bor. To‘y-u yengil mashina... va ro‘zg‘or qozoni nima hisobdan, degan haqli savol tug‘iladi. Ayrimlarning xayoliga chetda ishlayotgandir degan o‘y kelgandir. Yo‘q, u qirq besh yoshga kiribdiki, hali yurtimizdan chetga chiqib ko‘rgani yo‘q.

(Davomi 3-sahifada).

MILLAT IFTIXORIGA AYLANGAN DAHO

Boshlanishi 1-sahifada.

Lekin Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyatini har tomonlama o‘rganish va ommalashtirish borasida oldimizda hali muhim vazifalar turibdi.

Kuni kecha mamlakat Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori aynan shu muhim vazifani yechishga qaratilgan. Qarorda qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, “Jahon tamaddunі rivojida Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma’rifiy merosining o‘rni va ahamiyati” mavzusida ilmiy-adabiy uchrashuvlar o‘tkazish, yoshlar teatr-studiyalarida Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga oid spektakllar sahnalashtirish, allomaning ilmiy-ma’rifiy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmali axborot vositalarini, media mahsulotlar va audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, internet hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari, madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Mirzo Ulug‘bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyati va ilmiy-ma’rifiy merosi, uning insonparvarlik g‘oyalarini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida ilmiy anjumanlar va davra suhbatlari tashkil etish ham alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Qarorda Samarqand shahrida 2024-yil 10-11-oktyabr kunlari “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazilishi belgilangan. Samarqand observatoriyasi faoliyat ko‘rsatgan davrdan beri olti asr davomida unda erishilgan ilmiy natijalar oldin Sharqda, XVII asrdan boshlab esa G‘arbda o‘rganilib kelinmoqda. Lekin buyuk alloma merosining boshqa ko‘plab qirralari hali to‘la ochilgani yo‘q. Bu oson ish emas, albatta. Chunki u o‘rta asr qo‘lyozmalari bilan ishlashni, chuqur tahliliy yondashuvni talab etadi. Shuning uchun Samarqandda bo‘lib o‘tadigan anjumanga jahonda e’tirof topgan ayni sohaning yirik mutaxassislarini jalb etish nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, anjumanni o‘tkazish orqali buyuk vatandoshimizning umumbashariy ilm-fan va ta’limni rivojlantirishdagi roliga yana bir bor jahon hamjamiyati ziyolilarining e’tiborini qaratish rejalashtirilgan.


Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga allomaning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarini o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop qilish, “To‘rt ulus tarixi” nomli tarixiy asarining o‘zbek tiliga tarjimasini qayta nashr etish topshirilgan. O‘z vaqtida Mirzo Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi Samarqand observatoriyasida yaratilgan shoh asar – “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ni Istanbulga olib borgan va uni ko‘p nusxada ko‘chirtirib Usmoniylar davlatidagi barcha madrasalarga tarqatgan. Bu ish asarning yanada mashhur bo‘lishi va Yevropaga tarqalishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda bu asar mamlakatimizdagi barcha kutubxonalar va resurs-markazlarining eng markaziy kitob javonlarining to‘rida turishi kerak. Zero, barcha yoshlarimiz unga qayta-qayta nazari tushib, buyuk ajdodimiz asaridan ilhom olsin.

Qarorda nazarda tutilgan yana bir muhim tadbir bu – “Osmon toqiga qo‘yilgan narvon” nomli badiiy-publitsistik film taqdimotini tashkil etishdir. Mazkur filmda AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya olimlari tomonidan Mirzo Ulug‘bekning buyuk merosini va uning jahon ilm-fani rivojidagi o‘rni va rolini ochib berishga harakat qilingan. Kinoasarning badiiy qismida jahonning mashhur kinoyulduzlari Armand Assante (Mirzo Ulug‘bek rolida), Vinsent Kassel (voqealarni taqdim etuvchi) hamda o‘zbek aktyorlaridan Ma’ruf Otajonov (Amir Temur rolida), Javohir Zokirov (Abdulatif rolida) ishtirok etishgan. Kinofilm dastlab ingliz tilida tayyorlanib, bir qator kinofestivallarda namoyish etilgan. Endilikda ushbu filmni o‘zbek tilida keng jamoatchilikka taqdim etish vaqti keldi.

Prezidentimizning ushbu tarixiy qarori millatimiz iftixoriga aylangan daho – Mirzo Ulug‘bek shaxsini va merosini yana bir bor jahon ziyolilari hamjamiyatiga va aholimizning keng qatlami, ayniqsa yoshlarimizga ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha zaruriy chora-tadbirlarni qamrab olgan. Biz olimlar, o‘qituvchi-professorlar, jurnalistlar hamda barcha ziyolilarning burchi mazkur qarorda belgilangan mavjud tadbirlarni yuqori darajada amalga oshirishdan iboratdir.

Shuhrat EGAMBERDIYEV,
O‘zR FA Astronomiya instituti direktori,
akademik

O‘TMISH VA KELAJAK TUTASHGAN NUQTADA



Boshlanishi 1-sahifada.

Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik o‘rtalaridan ajdodlarimiz chorvasi uchun yaylovlar qidirib O‘rta Osiyo hududlariga kelgan. U davrlarda turkiy urug‘ va qabilalar yagona davlatga birlashmagan, urug‘chilik jamoalari tartibida sardorlar boshchiligida yashaganlar. Ularning jangovar suvoriylari Mesopotamiya, hatto Afrika qit’asiga qadar kirib borgan. Bu jarayonlar arxeologik materiallarda yaxshi kuzatiladi.

– Sobiq sovet davrida markaz va milliy respublikalar arxeologlari hamkorligida bir qator izlanishlar olib borilgan. Mustaqillik yillarida bu an’analar qaysi davlatlar arxeologlari bilan namunali tarzda yo‘lga qo‘yildi?

– Mustaqillik yillarida mamlakatimizda hukm surgan tinchlik, barqarorlik sharoitida hamkorlik doirasi kengaydi. Rossiya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Gretsiya, Polsha, Avstraliya kabi mamlakatlar arxeologlari bilan hamkorlikda mustaqil O‘zbekiston hududlarida arxeologik izlanishlar olib borildi. Ularning moliyaviy ko‘magida xizmat safarlari, stajirovkalar tashkil etildi. Arxeologiya ilmiy markazlari bilan ilmiy adabiyotlar almashinuvi avvalgidek davom ettirildi, xorijiy mamlakatlarda o‘tgan ilmiy anjumanlarda arxeologlarimiz o‘z ma’ruzalari bilan faol qatnashdilar.

Ammo bu davrda Markaziy Osiyodagi qo‘shni respublikalar arxeologlarining o‘zaro hamkorlik ekspeditsiyalari tashkil etilmadi, soha olimlarining izlanish obyektlariga avvalgidek rasmiyatchiliksiz borib kelish va tanishish imkoniyatlari keskin cheklandi. Oqibatda qo‘shni davlatlar ziyolilari o‘rtasida madaniy meros talashish muammosi tug‘ildi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev turkiy davlatlar hamkorligi masalasiga katta e’tibor qaratib, mintaqamizda bu borada yuzaga kelgan murakkab vaziyatni yumshatishga yo‘l ochdi. Umid qilamizki, qo‘shni davlatlar arxeologlari orasidagi hamkorlik an’analari kelgusida rivoj topadi va uning geografik doirasi yanada kengayadi.

– Siz Sopollitepa va Jarqo‘ton arxeologik yodgorliklarining ochilishi va o‘rganilishi munosabati bilan Zardushtiylik dini bizning yurtimizda paydo bo‘lganini asoslab bergansiz. Qariyb bir yarim ming yillik davrni qamrab olgan tariximizni o‘zida mujassam etgan mazkur ta’limotning o‘rganilishi hozir qay ahvolda?

– Bronza davriga tegishli Sopollitepa va Jarqo‘ton arxeologik yodgorliklarini shogirdlarim bilan birga o‘rgandim. Hozir maydoni yuz gektardan kam bo‘lmagan Jarqo‘ton shahristonida izdoshlarim tadqiqot olib bormoqda. Jarqo‘tonda otashparastlik diniga doir monumental Quyosh ibodatxonasi topilgan. Keyingi ilmiy ishlarimda men uni ilk zardushtiylik ibodatxonasi sifatida talqin qildim. Chunki bu yerda zardushtiylikka xos to‘rt unsurning barchasi o‘z aksini topgan. Masalan, ibodatxona hududida altar-o‘choqlar, bosh otashkada (olov timsoli) va suvi totli muqaddas quduq (obi hayot timsoli) bor, tashqaridan kelgan ziyoratchilar ibodatxonaning ochiq hovlisida, otashkadaga topinishga borish yo‘liga maxsus toshlar yotqizilgan (ona tuproq timsoli). So‘nggi Jarqo‘ton bosqichidan boshlab yashash xonalari yeri ostiga jamoa a’zolarini ko‘mish man etilib, aholi turar-joylaridan tashqarida daxmalar ochilgan. Maqsad aholi turar-joylarining havosini toza saqlash bo‘lgan.

Otashparastlarda marhumni yerga ko‘mmasdan, ostadonlarga solib dafn etish udumi shakllangan. Bu Sopollitepa va Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan. Mitti ostadonlarni yasash boshlangan. Bu dalillarning barchasi zardushtiylikning ilk davridan guvohlik beradi. To‘g‘ri, bronza davrini Zardusht shaxsi bilan bog‘lab bo‘lmaydi. Chunki Zardusht miloddan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmi va VI asrning birinchi yarmida yashagan tarixiy shaxsdir. U o‘z davrining buyuk faylasufi va islohotchisi, buyuk islohotchilik xizmatlari uchun mazdaizm dini uning nomi bilan zardushtiylik dini deb ham atalgan.

Bu dinning ilohi Axura Mazda sanalgan, mazdaizm ta’limoti rivojida Zardushtning xizmati katta bo‘lgan. “Avesto” va unga hamohang “Rigveda” kitoblarida o‘z aksini topgan ta’limot Yevropa va rus sharqshunoslari tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Ularning rahbarligi va ilmiy asarlari ruhida tarbiyalangan o‘zbek olimlari anchagina. Jumladan, avestoshunos professor Mirsodiq Is’hoqov va uning shogirdlari mazdaizm ta’limotini tadqiq qilishda davom etmoqdalar. Is’hoqov “Avesto” tili va unga yaqin qadimgi so‘g‘d tilini amalda biladiganlar Rossiya va Yevropada ham sanoqli qolgan. Bu masala hozir dolzarb muammodir.

– Sopollitepa va Jarqo‘tondan topilgan ipak, paxta va boshqa hunarmandlik mahsulotlari, bog‘dorchilik izlari o‘sha davr hayotini tasavvur qilishga yordam beradimi?

– Albatta. Janubiy O‘zbekistonda (Surxondaryo viloyati) Sopollitepa yodgorligi madaniy qatlamlaridan paxta chigiti topilgani qadimgi Sharqda O‘zbekiston hududlari Hindiston va Misrdagi kabi paxtachilik madaniyati markazlaridan biri bo‘lganini, Sopollitepadagi qabrlarda tabiiy ipak matodan tikilgan kiyim parchalari, shuningdek, tut daraxtidan yasalgan taroq, tut bargi bilan ipak qurti boqilganiga doir dalillarning uchrashi bronza davrida ipakchilik xo‘jaligi rivoj topganidan darak beradi. Shuningdek, jiyda, bodom, uzum, anjir urug‘lari uchrashi esa bog‘dorchilik madaniyati yuksak darajada rivojlanganining isbotidir. Bug‘doy, arpa, tariq, no‘xat kabi boshoqli o‘simlik donlari o‘sha vaqtda madaniylashtirilgan, lekin bizgacha kuyib, qorayib ketgan holda yetib kelgan.

Bularning barchasi hech bir mubolag‘asiz, o‘sha davrdagi iqtisodiy xo‘jalik hayotini tasavvur qilishga yordam beradi. Chunki O‘zbekiston hududida bronza davrida sug‘orma dehqonchilik madaniyati taraqqiy etgan, miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik boshlarida esa paxta ekilgan, ipak qurti boqilgan, bog‘dorchilik va sug‘orma dehqonchilik madaniyati rivojlangan.

– Ko‘pchilik otashparastlik, mazdayasniylik, zardushtiylik va majusiylik singari tushunchalarni aralashtirib yuboradi. Ularning farqi nimada?

– Aslida otashparastlik, mazdayasniylik va majusiylik tushunchalarini zamirida zardushtiylikning diniy-falsafiy asoslari yotadi. Otashparastlik – quyoshga, nurga, olovga sig‘inish demakdir. Uning tarixiy ildizlari juda qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Arxeologiya topilmalari, qadimgi yozma manba hisoblangan “Avesto” va uning tarixiy lingvistik tahliliga ko‘ra, zardushtiylik Markaziy Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon hamda Yaqin va O‘rta Sharqning bir necha mamlakatlarida keng tarqalgan. Zardusht buyuk faylasuf sifatida qabilaviy dinlar jamiyat rivojiga jiddiy to‘siq bo‘layotganini chuqur anglab yetgan. Zardusht ta’limoticha, yorug‘ olamni yaratgan bosh iloh Axura Mazdadir. Nur, Quyosh esa uning samodagi o‘g‘li deb targ‘ib qilinadi. Zardusht – qadimgi pahlaviy tilida “Magupta”, ya’ni Axura Mazdaning yerdagi olovga sig‘inuvchi bandalarining diniy mubodi degan ma’noni anglatadi. Pahlaviy tilidagi manbalarda Islomga qadar qad ko‘targan qadimgi shahar xarobalari va mudofaa devorlari bilan o‘ralgan qal’alar otashparastlar yashagan makon sifatida talqin etiladi. Bu makon va manzillarni olimlar arab tilida “majus”, majusiylar yashagan manzillar deb ataganlar. “Avesto”da Axura Mazda oliy xudo hisoblangani uchun mazdaizm yoki mazdayasniylik dini deb ham atalgan. Demak, otashparastlik, mazdayasniylik, majusiylik turli nomlarda bir dinning turlicha atalishidir.

“Avesto” zamirida jamiyat yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashdan iborat, degan ta’limot yotadi. Odamdagi hamma yaxshiliklar Axura Mazda, yomonliklar esa Axrimanda ifodalanadi. Bu kurash abadiy davom etadi. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyili Axura Mazda ta’limotining asosi. Agar odamlar shu ta’limot asosida yashasalar, ya’ni dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va bog‘dorchilik rivojlanib, jamiyatda mo‘l-ko‘lchilik bo‘lsa, Axura Mazda bundan mamnun, Axriman g‘amga botadi. Qurg‘oqchilik bo‘lib qahatchilik boshlansa, Axriman shod-xurram bo‘ladi.

Zardushtiylik talabiga ko‘ra, har bir inson Tangrining yakka-yu yagonaligini e’tirof etishi, xoh erkak, xoh ayol bo‘lsin, ilm o‘rganishi, turli kasblarni egallashi, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishi, kanal qazishi, ekin maydonlarini yovvoyi o‘tlardan muntazam tozalashi, yangi ekinbop yerlarni ochishi lozim. Shunda Axriman azoblanadi.

Zardushtiylik falsafasida marhumlarning jasadini tuproqqa ko‘mish yoki kuydirish taqiqlanadi. Bu din jonning o‘lmasligini, uning abadiyligini tan oladi, jannat va do‘zaxni e’tirof etadi.

Eron va O‘rta Osiyoda Islom dini hukmron dinga aylangach, ba’zi zardushtiylar Hindistonning Dehli va Gujarot viloyatlariga ko‘chib ketishga majbur bo‘lgan. Hozirgi kunda Eronning Yazd va Gilon viloyatlarida 100 mingdan ortiq, Hindistonning Maharashtra va Gujarot shtatlarida 115 mingdan ziyod zardushtiylar istiqomat qiladi.

– Turizmni rivojlantirishda arxeologiyaning o‘rni beqiyos. Masalan, Qoraqalpog‘iston hududidagi qadimiy qal’alar bo‘ylab sayohat yo‘nalishlarini ochish mumkinmi? Bu borada respublikamizda qanday loyihalarni taklif qilgan bo‘lardingiz?

– Men savolingizni Qadimgi Xorazm hududidagi qal’alar bo‘ylab sayohat yo‘nalishlari, deb o‘zgartirgan bo‘lar edim. Bu tarixiylik jihatidan to‘g‘ridir. Men Xorazmda bir necha bor bo‘lib, ilmiy anjumanlarda faol qatnashgan va Qadimgi Xorazm tarixiy muammolari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qigan bo‘lsam-da, bu noyob “Arxeologik qo‘riqxona”da dala tadqiqotlari bilan bevosita shug‘ullanmaganman. Shunga qaramay, turistik sayohat yo‘nalishlari “Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi”, “Qadimgi Xorazm – zardushtiylar vatani” kabi mavzularda tuzilishi, buning uchun esa, qal’alararo yo‘l xaritasini ishlab chiqish, har bir yo‘nalish bo‘yicha tarixiy haqiqatni xalq rivoyatlari bilan bog‘lagan holda, marshrutning aniq nuqtalarini belgilab, sayyohlarga mo‘ljallangan ilmiy-ommabop ma’ruzalar chop ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Chunki ko‘pchilik yosh gidlar tarix bo‘yicha bilimi chala bo‘lgani bois cho‘pchak to‘qishdan nariga o‘ta olmaydi. Men bunga bir necha bor guvoh bo‘ldim.

– Termizdagi Arxeologiya muzeyi har qanday sayyohni hayratda qoldiradi. Boshqa viloyatlarda ham shunday muzey ochish uchun o‘sha hududlarda topilgan eksponatlar yetarlimi?

– Boshqa viloyatlarda, ayniqsa, Qoraqalpog‘istonda arxeologiya muzeyi ochish uchun eksponatlar yetarli darajada. Men buni hech ikkilanmay ayta olaman. Biroq bunday muzeyni ochish uchun jahon talablariga javob beradigan bino barpo etish lozim. Hududlar ma’muriyati mobodo arxeologik muzey tashkil qilish bo‘yicha topshiriq berilsa, uning o‘ziga xosligiga e’tibor qaratmasdan, bo‘sh turgan bironta binoni ajratishi mumkin. Shu bois yurtimizdagi mavjud muzeylarning aksariyati arxeologiya muzeyi talablariga javob bermaydi. Hatto, siz ibrat namunasi qilib ko‘rsatgan Termiz arxeologiya muzeyi binosi ham. U yerda eksponatlar namoyishi ko‘ngildagiday, ammo muzeyning ortida katta saqlash inshooti bo‘lishi lozim. Uning maydoni eksponat zallari maydonidan ikki-uch barobar katta va keng bo‘lmasa, topilmalar qutilarda ochilmay yotaveradi.

Bunday muzeylar yirik arxeologik yodgorliklar qoshida qurilmog‘i darkor. U yerda esa, doimiy harakatdagi mavsumiy ilmiy ekspeditsiya ishlab turmog‘i maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv Namangan va Buxoro viloyatlari hududlaridagi Axsikent va Poykent shahar xarobalari qoshida yo‘lga qo‘yilmoqda. Toshkent viloyatining Nurafshon shahri hududida joylashgan Ulkanto‘ytepa, ya’ni Qadimgi Novqatda shunday muzey tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Viloyatda nafaqat, Arxeologiya, hatto Tarix muzeyi ham yo‘q. Arxeologik muzeylarni tashkil etish uchun mutasaddi davlat tashkiloti hisoblangan Madaniy meros agentligiga malakali mutaxassislarni ishga jalb qilish lozim.

– Yangi O‘zbekistonning kelajagi yoshlar qo‘lida ekaniga shubha yo‘q. Siz hayotingizning dastlabki 35 yilini ilm-fanga, arxeologik izlanishlarga, keyingi 30 yilini esa yoshlar tarbiyasiga, ular qalbida tarixiy tafakkurni shakllantirishga bag‘ishladingiz. O‘gitlaringizdan bahramand bo‘lganlar sizni katta ehtirom bilan ustoz, deb tilga oladilar. Buning boisi nimada?

– Halollik, poklik, xolislik, o‘z burchimga, kasbimga bor vujudim bilan berilib ishlash, qaysi davr bo‘lishiga qaramay, Vatanga, uning madaniy merosini ko‘z qorachig‘idek saqlash, har jabhada oldingi saflarda bo‘lish mening turmush tarzimga aylangan. Bu fazilatlarni ota-onam hamda ustozlarim, mashhur akademiklar Yahyo G‘ulomov va Ibrohim Mo‘minovdan, o‘z davrida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti bo‘lgan jasoratli olim Habib Abdullayevdan, arxeologik izlanishlar metodikasi va sirlarini o‘rganishimda ilmiy rahbarlik qilgan professor Mixail Gryaznovdan o‘rgandim. Ular mening ishga munosabatimni qadrladilar, haqiqat yo‘lidagi kurashda ortimda ulkan chinor bo‘lib turib berdilar.

Hayotim davomida bu sifatlarni shogirdlarim, izdoshlarim qalbiga singdirishga intilib yashadim. Kunim ularning ilmiy maqolalari, dissertatsiyalarini o‘qish, taqriz yozish, samimiy maslahat berish bilan o‘tadi.

Kompyuterdan foydalanishni 1995-yilda o‘rganganman. Shundan beri ilmiy ishlarimni, fikr-mulohazalarim bayonini boshqalarga tezroq yetkazishga intilaman. Bu esa mening shogirdparvar, hozirjavob bo‘lishimda asqotadi. Agar biror kun turli sabablarga ko‘ra ish bilan band bo‘lmasam, ta’bim xira bo‘lib, nimanidir yo‘qotganday yuraman.

Yangi O‘zbekistonimizning ilm-fani ravnaqi yo‘lida xizmat qilishni umrining mazmuni deb biladigan, ilmda qat’iyatli shogirdlarim yetarli. Ular orasida Temur Shirinov, Shopo‘lat Shaydullayev, Boqijon Matboboyev, Nasriddin Nazarov, Nigora Egamberdiyeva, Alisher Sobirov singari fan doktorlari, professorlar bor.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur.

Humoyun AKBAROV suhbatlashdi.

“QARS IKKI QO‘LDAN... QARZ-CHI?”



Yoxud qarmoqni ham ishtiyoqmand ovchiga berish kerak

Boshlanishi 1-sahifada.

Besh yil oldin ishdan qaytayotganimda avtobusda gurunglashib keldik. Nima ishlar boshida ekani bilan qiziqdim. “Ertalab Hazorasp tumani markazidagi “mardikor bozori”ga boraman. Xudoga shukr, har kuni biror yumush topiladi. Kuniga yuz ellik-ikki yuz ming so‘mcha ishlab topaman. Yana ikki mahal issiq ovqati ish beruvchi tomonidan”.

Bu yoqda ayoli bir bosh sog‘in sigir va ikki bosh novvos boqadi. Tomorqasida ro‘zg‘or qozoniga tushadigan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishadi. Yana, bir mavsumda ikki marta hosil ko‘tarishadi ham.

Uning oilasi turli-tuman atamali daftarlarda qayd qilinmagan. Garchi oilasida hech kim biror joyda ishlamasa-da. Mahalla raisi – ammasining o‘g‘li tanish-bilishlik qilib, o‘sha daftarlarning birortasiga tirkamagan. Sababi, el qatori ko‘rkamgina imorati, yana yangi yengil mashinasi bor. Yilda bir marta yengil mashinasida oila a’zolarini vodiy tomonlarga sayohat-u ziyoratga olib borishga vaqt, imkon, mablag‘ topadi ham.

Tog‘amning mehnatkash o‘g‘lini ko‘plarga ibrat sifatida ko‘rsataman. Axir “Harakatda – barakat”, “Qimirlagan qir oshar” degan otaso‘zlarimiz bor! Mardikorlik ayrimlar nazdidagidek uyatli yumush emas – mardning kori mazmuniga bir boqing!

Ammo yana afsuski, “Bersang – yeyman, ursang – o‘laman” degan otaso‘zi ham bizlarga tegishli. “Osmondan chalpak yog‘ishini kutish...” qabilidagi kinoyali iboralarni ham qachonlardir bobolarimiz o‘ylab topishgan.

Bu otaso‘zi va ibora ayrim qatlam vakillariga tekkizib aytiladi – yetti muchasi sog‘, ammo birovlardan (davlatdan desak to‘g‘ri) ehson-u (shu qatlamga ehson so‘zi yopishmaydi-da) yordam kutadigan ishyoqmas, boqimandalarga.

...Tuman hokimining sayyor qabulida qatnashishimga to‘g‘ri keldi. Bo‘yi naqd ikki metr keladigan alpqomat bir yigit “Ro‘zg‘orimda yetishmovchilik, moddiy yordam bersangiz”, deganida hayratdan yoqa ushladim. Hali hokim savol bermasidan oldin o‘zimni tuta olmay “Biror joyda ishlasangiz bo‘lmaydimi?” deb yubordim. Yigit menga o‘qrayib qaradi: “Buning sizga aloqasi yo‘q! Men hokimga murojaat qilyapman!” Hokim ham unga ayni shu savolni berdi. “Oldin yuborgan ishxonangizning maoshi oz ekan”, deb ming‘irladi u. “Turmush o‘rtog‘ingizni to‘quvchilik sexiga ishga qo‘ygandik, ammo bir oy ishlamay tashlab ketibdi. Sababi ne?” deb so‘radi hokim. Yigit bunga ham e’tiroz aytdi: “Ish vaqti to‘g‘ri kelmadi...” “Hammaga to‘g‘ri kelgan ish vaqti nega to‘g‘ri kelmaydi. Sog‘ligi joyidami?”

Yigit yana qandaydir e’tirozlarini ayta boshladi. Men shu o‘rinda tog‘amning o‘g‘lining tirikchiligi haqida gapirishga majbur bo‘ldim, gap orasida “Tog‘amning o‘g‘lining bo‘yi 1 metr-u 65 santimetr, vazni 65 kilogramm” deb atay qistirib ketdim...

Yuqoridagi holatlarni nimaga esladim?

Yaqinda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha o‘tkazilgan selektor yig‘ilishida Yurtboshimiz ma’ruzalarida keltirilgan raqam va faktlarga e’tibor qaratar ekanman, Bosh qomusimizda kafolatlangan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yurtimizda so‘nggi yillarda juda ko‘p xayrli ishlar amalga oshirilgani va bu tizim muvaffaqiyatli ishlayotganiga guvoh bo‘ldim. Prezidentimiz kambag‘allikni qisqartirish borasida ishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan tumanlar qatorida Xorazmdan Xonqa tumanini tilga oldilar. Afsuski, bu borada ishlar o‘lda-jo‘lda bo‘lgan tumanlar qatorida Tuproqqal’a tumani eslab o‘tildi.

Xonqa viloyatdagi aholi soni bo‘yicha oldingi o‘rinlardagi tuman. Bugun tumanda salkam ikki yuz ming aholi istiqomat qiladi. Aholi zich, yer maydonlari cheklangan. Tumanda uch yil oldin kambag‘al oilalar soni umumaholi sonining 23 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, bugunda bu ko‘rsatkich 14 foizga tushgan. Yil oxirigacha ko‘rsatkichni 6,2 foizga tushirish uchun bir qator loyihalar amaliyotga aylantirilyapti.

Xo‘sh, nima evaziga bu qadar katta siljishga erishilgan?

Tumandagi 44 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida amaldagi yilning o‘tgan davrida “Sayxunobod tajribasi” bo‘yicha har bir mahallada 10 tadan mikroloyiha tashkil qilinib, bunga 29 milliard so‘m sarflangan. Shu hisobdan 1130 ish o‘rni yaratilgan. Yil yakunigacha yana har mahallada 30 tadan mikroloyiha amaliyotga aylantirilishi uchun ishlar ketyapti. Shu hisobdan tag‘in 2431 ishchi o‘rni yaratilishi kerak. Buning uchun jami 98 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi ko‘zlangan.

Yoki “Uychi tajribasi” bo‘yicha 3750, “G‘ijduvon tajribasi” bo‘yicha 440 ta ish o‘rni yaratilgan. So‘nggi tajriba doirasida 4 ta mahalladagi 60 ta sanoat binosi yakka tadbirkorlik qiluvchilar ixtiyoriga berilgan. Shuningdek, “Zarbdor tajribasi” bo‘yicha 8 ta “drayver” loyihasi ishlab chiqilib, bunga salkam 155 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan.

Umuman aytganda, yilning o‘tgan davrida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” hamda “Biznesga birinchi qadam” dasturlari bo‘yicha 2199 subyektga 71 milliard so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratilib, shu hisobdan salkam uch ming kishining bandligini ta’minlashga erishilgan. Yil oxirigacha ayni shu dastur doirasida yana 1600 ta ishchi o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Yilning o‘tgan davrida tumandagi muqim ishga ega bo‘lmagan 24 ming nafar fuqaroni doimiy yoki mavsumiy ishlarda bandligini ta’minlashga e’tibor qaratilib, hozirgacha ularning 17 ming nafardan ko‘prog‘i bandligi ta’minlangan.

Yuqorida raqamlarni qatorlashtirib tashladik. Raqamlar ortida esa hayot haqiqati yotibdi. Masalan, tumanda yilning shu davrigacha 3 trillion 307 milliard so‘mlik qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirilgan. Bu har jon boshiga 16 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilganini bildiradi. Kuz fasli endi boshlangani, asosiy hosil dalalardan endi yig‘ishtirib olinayotganini eslasak, yil yakunida bu ko‘rsatkich ikki hissaga oshadi. Prezidentimiz mazkur yig‘ilishda aholiga bo‘lib berilgan yerlar bo‘yicha 16 ta tumanda 2-3 martadan hosil olish evaziga kambag‘allik ikki hissa qisqarganini eslatar ekan, Xonqa tumanini ham sanab o‘tdi.

Shu o‘rinda xonqaliklar azaldan dehqonchilik bo‘yicha vohada eng tajribali ekanligi, bir mavsumda bir daladan uch marta hosil ko‘tarish amaliyoti shu yerda yaratilganini yoki el kishilari qadimdan xalq hunarmandchiligi bo‘yicha dong taratishgani, bugun vohada tayyorlanayotgan turli mebel mahsulotlarining deyarli yarmi xonqaliklar tomonidan ishlab chiqarilayotganini eslatib ketish joiz. Bu jarayonda davlat moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lib imtiyozli kredit ajratayotgani aholining kambag‘al qatlami vakillariga katta imkon va sharoit yaratmoqdaki, kuni kecha mahalla idoralari eshigida moddiy yordam so‘rab yurgan ayrim ehtiyojmand oilalar bugun o‘z biznesi, o‘z daromad manbayiga ega bo‘lib, endilikda sobiq safdoshlariga homiylik qilishyapti.

To‘g‘ri, bu kabi loyihalar barcha tumanlarda bor. Davlat bu borada adolatli siyosat olib bormoqda. Ammo, nega ayrim tumanlarda loyihalar samara bermayapti, degan savol tug‘iladi. Buni mas’ullar loqaydligiga bog‘lash hamisha to‘g‘ri kelavermaydi va “Qars ikki qo‘ldan” degan otaso‘zimiz shu o‘rinda maydonga chiqadi.

Tuproqqal’a viloyatda eng kenja, ammo yer maydoni bo‘yicha oldingi o‘rindagi tuman hisoblanadi. Tumanda viloyat sanoat mahsulotining aksar qismi ishlab chiqarilishi sababi “Damas” yengil avtomobillari ishlab chiqaradigan korxona shu hududdaligi bilan izohlanadi. Ammo, salkam 60 ming aholisi bo‘lgan tumanda nega kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ishlar ko‘ngildagidek emas.

To‘g‘ri, tuman yer maydonining katta qismi ekin ekishga yaroqsiz – qumlik va suvsiz bo‘z yerlardan iborat. Ammo, viloyatda asosan qo‘y boqiladigan hudud ham shu. Qumli yaylovlarda cho‘ponlar yilning to‘qqiz oyida qo‘y boqishadi. Cho‘ponlarning ko‘pchiligi vohaning boshqa tumanlaridan keladi. Xo‘sh, shu joyning tub aholisi nima bilan shug‘ullanadi?

Gap shunda!

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Kambag‘allikni faqat pul tarqatish bilan hal qilib bo‘lmaydi!”

Pul tarqatish aksar hollarda boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Guvoh bo‘lamizki, ko‘pgina sayyor qabullarda “kunda-shunda” bir qatlam allaqachon shakllanib ulgurgan. Ish taklif qilishsa bo‘yni yor bermaydigan bu odamlar o‘zlari ham harakat qilishlari kerakligini tamomila unutganlar. Eng yomon tomoni, “Qo‘ldan berganiga qush to‘ymas” matalini bilmaganlar moddiy yordam olishga mazaxo‘rak bo‘lib qolishlari, bu boshqa oilalarni ham shu yo‘lni tanlashga odatlantirishi mumkinligida.

Kasalmand yoki oilasida nogironligi bo‘lgan shaxslar qarovi bilan bandligi sabab ishlay olmaydigan fuqarolarni tushunish mumkin, lekin sog‘ligi joyida, qo‘lida hunari borlarning boqimandalik balosiga ruju qo‘yishganini hazm qilib bo‘lmaydi.

...Yon qo‘shnimiz – oltmish yashar inson birinchi guruh nogironi, doimo qarovga muhtoj. “Temir daftar”da turadigan bu oila a’zolari davlatning qo‘liga qarab o‘tirishgani yo‘q. Ayoli tomorqasi va qo‘shimcha bog‘chasidan yaxshi hosil ko‘taradi. Erkak qo‘li bajaradigan ishlar uchun odam yollaydi. Yana har ikki yilda bir bosh ho‘kizni bozorga chiqaradi. Katta qizi maktabni tugatishi bilan tuman markazidagi oshxonaga kunbay ishladi – har kuni oilasiga pul keltirdi. Kichik qizi ro‘zg‘or-u dala ishlarida onasining o‘ng qo‘li.

O‘tgan yili oila to‘ng‘ich qizini qo‘shni qishloqqa turmushga uzatdi. Elga osh berdi. Kunda yoki kunaro o‘sha qizi ko‘chamizdan shoshib o‘tadi. “Yo‘l bo‘lsin”, deb so‘rasam “Otamning holidan xabar olaman, yana onam sabzini o‘toq qilishga ko‘maklash degandilar, shunga kelyapman”, deydi u yo‘l-yo‘lakay salomlashayotib. Yigirma ikki yashar bu qiz o‘zi tushgan xonadonda ham, ota uyida ham shu taxlit tinim bilmaydi. Bu yoqda emizikli bolasi parvarishiga ham vaqt topadi.

Gap tarqadiki, o‘sha qiz onasiga “Mahalla raisiga ayting, “Temir daftar”dan chiqarsinlar, yugurib-yelib ro‘zg‘orimizni oyoqqa qo‘ydik. Bizdan ham muhtoj oilalar bor-ku!” debdi.

Mana oriyat! Mana g‘urur! Mana odamiylik!

...Kamina qishloq joylardagi ahvol – kambag‘allikdan o‘z kuchi, o‘z salohiyati bilan chiqqan, o‘rtahol oilalar qatoriga qo‘shilganlar haqida bir necha misol keltiryapman, xolos.

Prezidentimiz yig‘ilishda kambag‘al oilalarning 83 foizida kattagina tomorqa borligini eslatdi.

Tomorqa – koni foyda. Tomorqa – oila g‘aznasi. Qachonki undan unum bilan foydalana olinsagina. Axir, afsuslar bo‘lsin, “davlat yordam beryapti”, deb tomorqasiga qaramaydiganlar ham bor...

“Ehtiyojmand odamlarga baliq emas, qarmoq berish kerak”, degan tamoyil islohotlarning so‘nggi bosqichida amaliyotga aylantirildi. Bu aynan boqimandalik kayfiyatiga berilgan kishilarning o‘zlari ham harakat qilishlari kerakligiga undovchi shior edi.

O‘sha “qarmoq” haqiqiy, ishtiyoqmand “ovchi” – fuqaro qo‘liga tushgandagina samara beradi. Aks holda “qarmoqni sotib”, bir kunlik maishatiga ishlatib yuboradiganlar paydo bo‘laveradi.

Yurtboshimiz hozirda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha keyingi yillar uchun juda katta “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi tayyorlanayotgani, unda yettita imkoniyat va mas’uliyat tamoyili asosida yangicha yondashuvlar belgilab berilishi, bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanishini aytdi. Buning uchun mutasaddilarga har bir mahallani to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ulardagi “kambag‘al oilalar portreti”ni ishlab chiqish topshirildi.

...Yuqoridagi mulohazalarim o‘zim guvoh bo‘lgan muqaddam kambag‘al toifasida ro‘yxatga olingan “oilalar portret”lari. Ular allaqachon bu “portret” jildidan tashqariga chiqishganki, bu boshqalarga o‘rnak bo‘lmog‘i kerak!

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

ADABIY DO‘STLIK – ABADIY DO‘STLIK

O‘ZBEK ADABIYOTINING OLMONIYADAGI TARG‘IBOTCHISI

Mamlakatlararo iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar bugun har vaqtdagidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, dunyo ahli hamma zamonlarda bir-biri bilan o‘zaro ko‘pqirrali muomala-munosabatlarini o‘rnatib keladi. Yevropa ziyolilari, xususan, germaniyaliklar bilan bizning mamlakat ahli o‘rtasidagi hamkorlik va do‘stona muloqotlar bugun yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Rasmiy tashriflar doirasida ko‘plab istiqbolli loyihalarga start berilayotgani mamlakatlararo do‘stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilayotir.



Aslida barcha insoniy munosabatlar badiiy adabiyot vositasida o‘zaro chambarchas bog‘lanadi. Agar hamkorlar ilm ahli bo‘lsa, ularning ilmiy obyektlari – adabiy manbalar va davrlar, adabiy davralar va siymolar, ilmiy-adabiy kitoblar va talqinlari bir-biri uchun muloqot mavzusi bo‘ladi.

Shaxsan mening olmoniyalik hamfikr, hamkorim Gumbold universiteti professori, yaqinda chin dunyoga rixlat etgan Zigrid Klaynmixel xonim bilan dastlabki suhbatlarimiz aynan har ikkimizni qiziqtirgan o‘zbek adabiyoti xususida bo‘lgan edi.

Xuddi kechagidek esimda, Berlindagi Gumbold universitetiga ilmiy safarga borganimda professor Ingebor Baldauf meni Zigrid xonim bilan tanishtirgan edi. Zigrid opa bilan kutubxonalarga bordik. Germenevtikaga, metodologiyaga doir nazariy adabiyotlar yuzasidan maslahatlar so‘radim. Bir necha soatlab birgalikda kitob javonlarini oralab yurdik. Gapimiz gapimizga ulandi. Ora-orada Zigrid xonimni qiziqtirgan Alisher Navoiy yoki Abdulla Qodiriy ijodiga tegishli savollariga imkon boricha javob berdim. Olima o‘shanda yosh boladek quvongani hamon yodimda. Bu samimiy va ochiqko‘ngil olima ilm-ma’rifatga oshno, keng miqyosdagi bilim sohibasi edi.

Zigrid xonimning o‘zbek tilida olib borgan mashg‘ulotlarida qatnashdim. Dars jarayonida opa o‘zbekcha o‘rganayotgan talabalarga Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasini hijjalab o‘qitib, nemis tiliga tarjima qildirdi. Hikoyadagi har bir jumlani so‘zma-so‘z izohlab berdi.

To‘g‘risi, nemis tilini biladigan filolog olimlar, o‘zbek adabiyotining Germaniyada targ‘iboti tadqiqi bilan shug‘ullangan mutaxassislar Zigrid Klaynmixel nomiga ko‘p bora duch kelishadi. Xo‘sh, biz Zigrid Klaynmixel ijodiy shaxsiyatini qay darajada bilamiz? Bu olimaning adabiy-ilmiy xizmatlari nimalardan iborat?

Balki bu kabi savollarning mukammal javobi uchun katta bir ilmiy tadqiqot kerakdir. 1938-yil Germaniyada tug‘ilgan olima avval Gumbold universitetida usmonli turk tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim oladi. Shu universitetda “Marzubannoma”dagi fonologik, morfofonologik va morfologik muammolarni o‘rganish” mavzusida dissertatsiya himoya qilgan. O‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida turkiy xalqlar adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti, jadid adiblari ijodi bilan shug‘ullanadi.

Zigrid Klaynmixelning adabiyot bilan bog‘liq ulkan xizmatlari bor. Olima o‘zbek adabiyotining do‘sti edi. O‘zbek tilida bemalol muloqot qilar, o‘zbek tilida yozilgan ilmiy, badiiy asarlarni hech qiynalmay o‘qib tushunar edi. O‘zbek tili va adabiyotidan olmon talabalariga saboq bergan olimaning o‘zi ham qator ijodiy asarlar yozib qoldirishga muvaffaq bo‘ldi.

Zigrid Klaynmixelning “Xorazmda – xalpa, Farg‘onada – otinoyi”, “Sharqona yozish an’anasining rivojlanishi. 1910–1934-yillar o‘zbek dramasi va nasriy asarlar tadqiqi”, “Yozuvchi Abdulla Qodiriyning O‘zbekiston ma’naviy va madaniy hayotidagi o‘rni”, “Cho‘lpon ijodida tutqin ayollar va Kleopatra” kabi jiddiy kitoblari, ilmiy maqolalari shular jumlasidan.

Cho‘lpon xususidagi maqolasida qo‘yilgan mavzuni shoirning she’riy majmualari, “Yorqinoy” pyesasi, Kleopatra haqidagi she’rlari hamda sochma-mansurasi misolida atroflicha tadqiq etadi. Cho‘lponning ijodidagi Kleopatra obrazini rus simvolist shoirlari Aleksandr Blok va Valeriy Bryusov asarlariga qiyoslaydi. Olima jadid shoirining estetik idealini juda yaxshi tushunib: “Cho‘lponning poetik ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, Kleopatra Amudaryo bo‘yida “yerdagi yulduz”, ya’ni asira ayol, Nil bo‘yida esa “osmondagi yulduz” bo‘lishi mumkin”, deb yozgan edi. Umuman, olimaning bu fikrlari Cho‘lpon ijodining ham umumkonsepsiyasiga muvofiqdir.

Zigrid Klaynmixel xonim o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan faol shug‘ullandi. Alisher Navoiyning “Navodir un nihoya” devoni yuzasidan tadqiqot olib bordi. “Navoiy va Ahmad Posho” maqolasida turk shoiri Ahmad Posho Alisher Navoiyning 17 ta g‘azaliga nazira bog‘laganini aniqlab, ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilgan edi.

Zigrid Klaynmixel nemis tilida chiqqan adabiy lug‘atlarga turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalari, xususan, o‘zbek adabiyotidan Mashrab, Tog‘ay Murod, Halima Xudoyberdiyevalarning ijodi yuzasidan maqolalar yozgan edi.

Bular olima ijodining bir qirrasi, albatta. Ammo ana shu ma’lumotlarning o‘ziyoq Zigrid Klaynmixelning katta adabiy-ilmiy xizmatlarini tasavvur qilish uchun kifoya, deb o‘ylayman. Bu ma’lumotlar, manbalar, maqolalar, kitoblar olima umrining ko‘rki. Shu kunlarda chin dunyoga safar etgan Zigrid Klaynmixel xonimni endi adabiyotshunoslik ilmida qilgan xizmatlari bilan yodga olamiz. Zero olima umrini undan qolgan adabiy-ilmiy meros – kitoblari uzaytirajak...

Bahodir KARIM,
professor

2024-yil 20-sentyabr
№ 39(39)

MOZIY SADOSI

ARMINIY VAMBERI

O‘ZBEK DIYORI VA ALLOMALARI HAQIDA



Markaziy Osiyo mintaqasi, qadim Turon o‘lkasi dunyo ahlini, xususan, tarixchi olim va sayyohlarni azaldan o‘ziga maftun etib keladi.

Yurtimiz haqida Sharqu G‘arb olimlari, shoir-u adiblari tomonidan ko‘plab asarlar bitilgan. Biroq ular orasida vengriyalik mashhur sharqshunos olim, tilshunos, sayyoh va yozuvchi Arminiy Vamberining mintaqamizga qilgan safariga oid xotiralari (“O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat”, “O‘rta Osiyo ocherklari”, “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kitoblari) alohida ajralib turadi.

Arminiy Vamberi (1832–1913) bolaligidanoq yahudiy, venger, nemis va slovak tillarini yaxshi bilgan, keyinchalik lotin, yunon, fransuz, ingliz, italyan, rus, shved, ispan, o‘zbek, turk, arab va fors tillarini ham o‘rgangan.

Sharq tillariga bo‘lgan qiziqish Vamberida uzoq yurtlarga safar qilish orzusini uyg‘otadi. Shu bois u 1857-yili Istanbulga kelib, mahalliy turk zodagonlari hamda yevropalik diplomatlar o‘rtasida muallim va olim sifatida nom chiqargan.

Shu davrda unda O‘rta Osiyoga safar qilish istagi paydo bo‘ladi. Vamberi musulmoncha ism – hoji Rashid afandi nomi bilan 1863-64-yillarda mintaqamizda bo‘lib, sayohat taassurotlari asosida “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat” kitobini yozadi.

Mazkur asarida muallif safari davomida o‘ziga hamroh-lik qilgan Xorazm farzandi – qo‘ng‘irotlik mulla Is’hoq Ibrohim nomini bir necha marta tilga olgan. “Mulla Is’hoq mening sarguzashtlarimda muhim o‘rin tutadi va u hozir Peshtda yashamoqda”, deb yozadi u. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1836-yili Qo‘ng‘irotda tug‘ilgan mulla Is’hoq taniqli ulamo bo‘lib, Qur’oni Karimni, diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur bilgan.

Ushbu vatandoshimiz Vamberining sayohati davomida uning yaqin do‘sti va yordamchisiga aylangan. Safar nihoyasida u bilan birga Vengriyaga ketib, shu yurtda muqim yashab qoladi. Venger tilini o‘rganib, Fanlar akademiyasining sharq qo‘lyozmalari bo‘limiga ishga kiradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini venger tiliga tarjima qilib, ularning targ‘iboti bilan shug‘ullanadi. Ayni vaqtda mashhur venger adibi Yanosh Aronning “Ajoyib suyg‘unning hikoyati” asarini eski o‘zbek tiliga o‘giradi.

Mulla Is’hoq 1892-yili Vengriyaning Velenje shahrida vafot etgan va shu shahar qabristonida musulmonchilik qoidalariga binoan hurmat-ehtirom bilan dafn etilgan.

Arminiy Vamberi xotiralarida muallifning o‘zbek diyori va xalqimizga, buyuk ajdodlarimizga bo‘lgan alohida hurmati va ehtiromi sezilib turadi.

Quyida e’tiboringizga havola etilayotgan qaydlarni o‘qib, bunga siz ham amin bo‘lishingiz mumkin.

TAHRIRIYAT

Samarqand-u Buxoro ta’rifida

Islom olamida yagona toza buloq kabi saqlanib kelayotgan O‘rta Osiyoni, Xiva, Buxoro va Samarqandning tabarruk ziyoratgohlarini ko‘rish azaliy orzuyim edi.

* * *

Samarqand Temurning poytaxti, o‘zining kengligi, ahamiyati va go‘zalligi bilan ulug‘ shaharlar darajasiga ko‘tarildi.

Shaharning kunchiqar tomonida “Dilkusho” saroyi bor, shaharga qaragan eshigiga “Darvozayi firuza” deb zarhal harflar bilan juda chiroyli qilib yozilgan. Bu saroyning keng, katta, osmon va yulduzli koshinlar bilan bezatilgan peshtoqi uzoqdan yaltirab turar edi.

* * *

Bog‘lar va haydaladigan yerlarga boy hudud bo‘ylab yarim soat yurgach, ko‘z oldimizda tepasida laylak uyalari bo‘lgan minoralarga boy Buxoroyi sharif namoyon bo‘ldi.

Buxoroni ziyorat qilgan kishilar shahardagi osori-atiqalarni ko‘rib hayratga tushadilar.

* * *

Buxoro kitob bozorida va kitobfurushlarning uylarida qimmatli ilm xazinasi mavjudki, bu Sharqni o‘rganuvchi yevropalik tarixchi, tilshunos va boshqa olimlar uchun o‘ta foydali manba bo‘lishi mumkin.

* * *

Buxoro bug‘doyi eng sifatli sanaladi, u uzun va ingichka qizil rangli don beradi. Bu bug‘doy unidan Buxoro shahrida shuhrat qozongan non yopishadi. Bu bug‘doy hamma yerda shirmoy nomi bilan shuhrat qozongan.

Xiva ta’rifida

Men avval Xivaning shunchalik chiroyliligini faqat qiyosdan bo‘lsa kerak, deb o‘ylardim. Yo‘q, yo‘q! Xiva atrofidagi baland minoralar, soya tashlab turgan kichik hovlilar, ko‘m-ko‘k yaylovlar va to‘kin-sochin bozorlar hozir ham, Yevropaning g‘oyat go‘zal shaharlarini ko‘rganimdan so‘ng ham men uchun chiroyli bo‘lib tuyulyapti...

Mevalari Eron va Turkiyadagina emas, butun Yevropadagilardan totli. Tengi yo‘q, ajabtovur qovunlari Pekingacha ma’lum. Aytishlaricha, Usmon saltanatining sultoni vaqti-vaqti bilan Urganch qovunlarini xushlab qolar ekan. Bu qovunlar Rossiyada ham yuqori baholanadi. Ularning shirinligi to‘g‘risida yevropaliklar hatto tasavvur ham qilolmaydi. Ular shu darajada shirin va xushbo‘yki, og‘izda eriydi. Agar ular non bilan tanovul qilinsa, bizga in’om etilgan eng yaxshi taom shu bo‘ladi.

Amudaryo haqida

Dunyoda Amudaryoga o‘xshashi yo‘q. Hatto mashhur Nil daryosi ham bunday emas. Aminmanki, men bilgan daryolar orasida suvi eng shirini Amudaryodir.

Chig‘atoy emas, turkiy til! Yoxud bir “g‘alati mashhur” xususida

Ko‘pgina Yevropa olimlarining (ularga “Chig‘atoy tilidan qo‘llanma” asarimda men ham qo‘shilgan edim) fikrlari ikki karra xatodir.

Birinchidan, O‘rta Osiyo aholisi hech vaqt o‘z yurtini ham, o‘z tilini ham chig‘atoy deb atamagan. Bu nom Amudaryoning u tomoni – Eronda forslar tomonidan qo‘llanilgan. Bu o‘lkaning aholisi o‘z yurtini Turkiston, o‘z tilini turkiy til, deb atab kelgan.

Ikkinchidan, Chig‘atoy musulmonlar tomonidan nimaga erishgan bo‘lsa erishgan, lekin muhabbatga, hurmatga erishmagan.

Amir Temur haqida

Hirot va Halab olimlari bilan bahsga kirishib, o‘ziga o‘xshab fikrlamagan kishilarni mukofotlagan odamni qahri qattiq va yovvoyi deyish mumkinmi?! Bursadan Samarqandga yuk hayvonlariga butun boshli bir kutubxonani ortib, ko‘chirib keltirgan kishini qahri qattiq va yovvoyi deyish mumkinmi?!

Shuning uchun ham Temurni Chingiz bilan teng qo‘yuvchilar ikki karra xato qiladilar.

Mirzo Ulug‘bek fenomeni

Ulug‘bek G‘arb dunyosida bir necha asr keyin ham nomi hurmat bilan tilga olinadigan temuriylar sulolasidan edi. U hukm surgan davr temuriylarning oltin davri sanaladi.

Alisher Navoiy dahosiga ehtirom

Navoiy noyob poetik daho namunasidir. U o‘zidan she’riyat, tarix, axloq va mantiqqa oid ko‘plab shoh asarlarni meros qilib qoldirdi.

Bu zot go‘zal bir siyosatdon ham edi. U mohir qo‘mondon, o‘tkir qalam sohibi sifatida shuhrat qozondi. Har kimga yordam ko‘rsatgani kabi, keyinchalik o‘zining turk tilidagi bitmas-tuganmas asarlari bilan hayot chog‘ida ham, vafotidan so‘ng ham buyuk hurmatga sazovor bo‘ldi.




Olamdan o‘tganiga uch yarim asr bo‘lsada, uning asarlari ozmi-ko‘pmi adabiyotdan xabardor har bir o‘zbekning xonadonida eng ulug‘ o‘rinda turadi.

Naziri yo‘q asar

Bobur Mirzo o‘z asari orqali (“Boburnoma” nazarda tutilmoqda – tahririyat) bizning ko‘z o‘ngimizda ham shoir, ham siyosatdon, ham faylasuf siymosida gavdalanadi.


Turkiy va forsiy xalqlarning adabiyotida o‘zida shunchalik teran va manfaatli fikrlarni oddiy, ravon tilda bayon etgan bunga o‘xshash boshqa bironta kitob yo‘q.

Xivalik mulla Is’hoq to‘g‘risida



Vamberi (o‘ngda) Mulla Is’hoq bilan.

Mulla Is’hoq halol, ochiqko‘ngil inson edi. Uning g‘arazdan yiroq, sof munosabati xavf-xatarga to‘la yo‘limda menga yolg‘iz dalda va suyanchiq bo‘ldi. Bilimga intilishi va menga yaqinligi yosh mullaga e’tiborimni oshirdi. Bu navqiron yigitdan yetuk bir kishi chiqishini his etganim zahoti men uni Xorazmda tashlab ketmaslikka, iloji bo‘lsa, o‘zim bilan Yevropaga olib ketishga qaror qildim. Birinchi tanishganimdayoq uning qalbi sofligini sezgan edim, bu masalada men hech qachon adashmaganman.



Mulla Is’hoq Vengriyada

Bir yildan so‘ng Angliyadan qaytib kelsam, ne ko‘z bilan ko‘rayki, mullam venger libosida, sallaning o‘rnida – so‘nggi modadagi prichyoska. Venger tilini tez o‘rganib olgan. Mening mullamni hamma yoqtirib qolgan. Ikki yil avvalgi Xiva madrasasi mullasining bashang ko‘rinishini qarang.

U bizning G‘arb madaniyatimizni quyidagi sabablarga ko‘ra sevadi: birinchi o‘rinda u jamiyatning yakka shaxslarga ko‘rsatadigan zulmning yo‘qligidan xursand. O‘rta Osiyoda inson hayoti yo‘llarda qaroqchilardan, shaharlarda hukmdorlarning doimiy noraso farmonlaridan muhofaza etilmagan. Ikkinchidan, yevropaliklar bahramand bo‘layotgan qulayliklar uni o‘ziga rom etadi. Uchinchidan, Yevropada din va millatning har xilligi sezilmas darajadadir.

Mulla Ishoq hozir Yevropa akademiyasi kutubxonasida katta qo‘lyozmalar sahifalarini o‘qiyapti, yunon va lotin adabiyotlaridan tashqari yana falsafa, dunyo va din tarixiga oid kitoblar bilan tanishyapti. Ilgari “Yevropa” so‘zini eshitgani gumon bo‘lgan bu inson hozir Yevropaning eng yetakchi gazetalaridagi maqolalarni mutolaa qilmoqda. G‘arb mamlakatlaridagi turli siyosatlarni muhokama etyapti va sharqiy yarimshar bilan g‘arbiy yarimsharni ikkilanmasdan bir-biriga qiyoslayapti.

Xon bilan suhbat

Tarixchi Umid Bekmuhammadning “Vengriyada yashagan xorazmlik olim” ilmiy-ommabop risolasida yozilishicha, bir afg‘on yigit Xiva xoni Said Muhammadxon saroyi amaldorlaridan biriga Vamberining josus ekani haqida ma’lumot beradi. Xonning ayg‘oqchilari ham xorijlik hojining (Vamberi Xivaga turk musulmon – hoji Rashid afandi qiyofasida kelgan – tahririyat) faqat ziyoratgohlarni emas, balki hamma narsani kuzatayotgani to‘g‘risida xabar berishadi. Shu bois xon Vamberini sinab ko‘rishga ahd qiladi. U barcha a’yonlari oldida:

– Eshitdimki, siz dunyoviy ilmlar bilan ham shug‘ullanar, mubolag‘a uslubida maktublar ham bitar emishsiz. Qani, bizga namuna tarzida istanbulcha bir necha satr xat bitib bering-chi, – deydi.

Vamberi esa ko‘rpachaga o‘tirgan holda quyidagi satrlarni yozadi:

“Ey, kuch-qudratda benazir podshoh! Sening xonlik marhamatingga sazovor bo‘lmish kamina quling, “Jamiki xattotlar nodon bo‘ladir” degan arab maqoliga rioya etib, xattotlik ila kam mashg‘ul bo‘lg‘onman va mana endi “Shohlar ko‘ngliga yoqqan nuqson fazilat sanalur” degan fors maqoliga binoan senga atab shu satrlarni bitishga jazm etdim”.

Said Muhammadxonga bu ta’riflar ma’qul kelib, Vamberini dasturxonga chorlab suhbat quradi. Shu tariqa Vamberi jazodan omon qolib, hatto Xiva xonining ehtiromiga sazovor bo‘ladi.

Elmurod NISHONOV nashrga tayyorladi.

VATAN KO‘NGILDADIR, KO‘NGIL VATANDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Turli loyihalar orqali vatandoshlarimizning mamlakatimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy soha, ilm-fan, madaniyat, sport va boshqa yo‘nalishlarni rivojlantirishga, o‘zlarining tarixiy Vatani – O‘zbekistonning obro‘sini oshirish hamda uning tashqi dunyo bilan munosabatlarini mustahkamlashda munosib va sezilarli hissasini qo‘shishiga erishildi.

AQShni migrantlar yurti deb atashadi. Bugungi kunda AQShda 300 dan ortiq turli millat va elatlar istiqomat qilib keladi. Agar raqamlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2023-yil statistik ma’lumotlariga ko‘ra AQShda 43,7 mln. nemis millatiga mansub fuqarolar istiqomat qilsa, 37,2 mln. meksikalik, 32,9 mln. irlandiyalik, 26,2 mln. ingliz, 16,9 mln. italyan, 9,9 mln. polyak, 9,5 mln. fransuz, 7,2 mln. yahudiy, 5,1 mln. xitoylik va boshqa millat vakillari yashashadi. Bugungi kunda AQShning turli shtatlarida 300 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz istiqomat qilib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, turli davlatlar xorijda yashayotgan vatandoshlari bilan doimiy aloqalarni o‘rnatgan va ularning tajriba va ko‘nikmalaridan davlat manfaatlari yo‘lida keng foydalanib keladi.

Hurmatli Yurtboshimizning siyosiy irodalari va tashabbusi sabab xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yangi tahrirda qabul qilingan qomusimizning 23-moddasidagi “...Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi”, deya belgilab qo‘yilgan tartib yuqoridagi fikrlarimizning amaldagi tasdig‘idir. Shu o‘rinda, chet eldagi vatandoshlarimiz davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlardan xabardor va mamnun ekanligini ta’kidlash lozim.

Xabaringiz bor, 2021-yil 11-avgust kuni “Vatandoshlar” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risidagi qaror imzolandi. Bu hujjat bilan sohada yangi ufqlar ko‘rindi. G‘oya va tashabbuslardan amaliy ishlarga o‘tildi.

Jumladan, 25-avgustdan 8-sentyabrga qadar belgilangan dastur asosida “Vatandoshlar” jamoat fondi tomonidan AQShda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimiz ishtirokida o‘ndan oshiq turli madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlari ko‘tarinki ruhda tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlangan ushbu bayram tadbirlari AQShning 8 ta shtatidagi 10 ta shaharda keng miqyosda o‘tkazildi.

Dastlab, 25-avgustda Nyu-Jersi shtatining Randolf shahrida “Uzbek society of America” jamoat birlashmasida bayram tadbirlari boshlangan bo‘lsa, dastur 8-sentyabr kuni Nyu-York shahrida “Mahalla USA” jamoat birlashmasining tadbirlari bilan yakunlandi.

Nyu-York shahrida o‘zbek tili o‘rgatishga ixtisoslashgan “Ziyo-art” o‘quv markazi o‘z faoliyatini yangi binoda boshladi. Markazda odobnoma va tarbiya, o‘zbek urf-odatlari, boy qadriyatlarimiz bo‘yicha darslar o‘tiladi. “Vatandoshlar” jamoat fondi o‘quv markaziga zarur adabiyot va anjomlar taqdim etdi. Umuman olganda, bu yilgi o‘tkazilgan bayram tadbirlari vatandoshlarimiz ko‘nglidan chuqur joy oldi va bir umrga ularning xotirasida muhrlanib qoldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aslida har bir inson dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, reja-maqsadlarini tug‘ilib o‘sgan joyi bilan bog‘lashni istaydi. Shu ma’noda, oldimizda hali katta ishlar, ko‘plab loyihalar turibdi. Maqsadimiz davr yangilanishlariga hamohang bo‘lgan xorijda yashayotgan vatandoshlarimizni yurtimizdagi islohotlarga jalb etish, O‘zbekiston kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish va xorijdagi barcha o‘zbekistonliklarni ona Vatan atrofida birlashtirishdan iborat.



Barcha tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – vatandoshlarni ona Vatanimiz atrofida birlashtirish. “Biz bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” bosh g‘oyasi asosida o‘tkazilgan tadbirlarda AQShning turli shtatlarida istiqomat qilib kelayotgan 6 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz jam bo‘lishdi.

Istiqlol bayrami BMT binosida katta tantana bilan nishonlandi. Tadbirda turli davlatlarning diplomatik korpus va AQSh siyosiy doira vakillari, senator va kongressmenlar ishtirok etishdi. So‘zga chiqqan notiqlar Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar yuzasidan to‘planganlarga atroflicha ma’lumot berdi. Tadbir davomida turli videoroliklar namoyish etildi.

Shuningdek, dastur doirasida Nyu-Jersi shtatining Randolf shahrida vatandoshlarimizdan iborat jamoalar o‘rtasida milliy palov tayyorlash tanlovi o‘tkazildi. Mazkur tanlovda O‘zbekistonning turli viloyatlarining palov tayyorlashdagi o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha mahorat darslari tashkil etildi. Yosh vatandoshlar o‘rtasida “O‘zbekiston – ona Vatanim” mavzusida rasmlar tanlovi va viktorinalar ham juda qizg‘in ruhda o‘tdi. Bu tadbir yosh avlod o‘rtasida milliyligimiz, o‘zligimizni asrash va keyingi avlodlarga yetkazish kabi ezgu g‘oyalarni o‘zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir.

Bayram munosabati bilan Illinoys shtatining Chikago shahrida ilk bor adabiy-badiiy kecha o‘tkazildi. O‘zbekiston xalq shoiri, filologiya fanlari doktori Iqbol Mirzo kecha mehmoni bo‘ldi. Tadbir davomida bayram tabrigi bilan birga, shoir qalamiga mansub she’rlar o‘qildi. Shuningdek, tadbir davomida “Jadid” gazetasi taqdimoti o‘tkazilib, yig‘ilgan vatandoshlarga gazetaning yangi chiqqan sonlari ulashildi.

AQShda birinchi bor Nyu-Jersining Dover shahrida “Vatandoshlar” jamoat fondi, “Turkiston-Amerika assotsiatsiyasi” bilan hamkorlikda “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi. Intellektual bahslarni klub prezidenti Abdurasul Abdullayev boshqarib bordi. Yettita shtatdan kelgan jamoalar kuch sinashgan o‘yinda O‘zbekiston tarixi, madaniyati, qadriyatlari bilan bog‘liq savollar ham berildi. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan Filadelfiyaning “Yurtdosh” jamoasi Fond tomonidan qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan “Mustaqillik kubogi” futbol turniri ham qiziqarli lahzalarga boy bo‘ldi. Unda 10 ta shtatdan kelgan 15 ta jamoa 3 ta guruhlarga bo‘lingan holda to‘p surishdi. Natijaga ko‘ra Ohayo shtati Sinsinnati shahridagi “Hamkor Uz” jamoasi birinchilikni egalladi.

Shuningdek, bayram tadbirlari Pensilvaniya shtatining Filadelfiya va Pittsburg shaharlarida, Virjiniya shtatining Viyenna shahrida, Massachusets shtatining Boston shahrida, Illinoys shtatining Chikago shaharlarida ham keng nishonlandi. Barcha tadbirlarda vatandoshlarimiz faol ishtirok etdi. Tadbirlarda milliy taomlar tayyorlandi. Hunarmandchilik buyumlari ko‘rgazmasi hamda milliy o‘yinlar tashkil etildi. Mazkur tadbirlarda yurtimizda ko‘zga ko‘ringan san’atkorlarning chiqishlari vatandoshlar tomonidan olqishlandi.

Ushbu tadbirlarning barchasida yurtdoshlarimiz ona vatanimiz – O‘zbekistonning har bir insonga bo‘lgan cheksiz mehr-u e’tiborini dildan his qilib turdi. Bundan vatandoshlarimiz juda mamnun. Sababi, ilgari bu kabi tadbirlar uyushqoqlik bilan, birlashib amalga oshirilmagani, tadbirlar bunchalik darajada tashkil etilmaganini ta’kidlashdi. Bu e’tibor tashabbuskori hurmatli davlatimiz rahbari ekanligini ular dildan his etishdi. Kelgusida ham yangi loyihalar asosida ushbu ezgu an’anani davom ettirishga kelishildi.

Fond mutasaddilarining AQShga tashrifi davomida to‘rtta jamoat birlashmasi bilan o‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Mingdan ortiq badiiy adabiyotlar, ikki yuzga yaqin diniy adabiyotlar o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Bundan tashqari, Viyenna shahrida o‘zbek raqs to‘garagi hamda dutorchi qizlar guruhi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Odiljon SATTAROV,
“Vatandoshlar” jamoat fondi
boshqaruv raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori

MA’NAVIY TARBIYA

NAFS, JISM va RUH



HAR ODAMNING ENG YOVUZ DUSHMANI

Inson, aslan olganda, jism va ruhdan tashkil topgan. Jism esa nafsga ega. Nafs va jism – hayvonlarda ham bor. Lekin ruh yo‘q ularda. Shu jihatlari bilan inson, bir tarafdan jonzotlarga, ikkinchi tarafdan farishtalarga o‘xshaydi. Chunki farishtalarda mutlaqo nafs bo‘lmaydi. Ular faqat Alloh ibodati bilan mashg‘ul.

Endi savollar tug‘iladi: “Agar hayvoniylik jihati hisobga olinsa, inson Alloh nazdida farishtalardan keyingi o‘rinda turishi kerak emasmi?” “Axir, unda nega Tangri taolo buyrug‘i bilan farishtalar ham Odam Atoga sajda qildi?”

Insonning ustunligi shundaki, u o‘zida nafs bo‘la turib, uni qat’iy jilovlash orqali farishtalik darajasiga intiladi. Farishtalar esa hech bir mashaqqatsiz bu mavqega ega bo‘lgan.

Iye, deyishingiz mumkin, nafsni butkul jilovlab, Alloh taolo toat-ibodati bilan shug‘ullanish orqali farishtalikka intilish shunchalar mashaqqatmi?

Mashaqqat bo‘lganida ham shunday mashaqqatki...

Batamom Alloh amrida bo‘lish va barcha nahy, ya’ni man etilgan ishlardan chekinish uchun inson o‘zidagi nafsni batamom yengishi shart. Shuning uchun har bir odamning haqiqiy, eng yovuz dushmani o‘z ichida. Bu – uning nafsi.

Nafsini yenggan shaxs esa farishtadan ham yuqori mavqega erishadi. Shuning uchun ham Haq taolo barcha farishtalarga Odam Atoga ta’zim qilishni buyurgan.

KOMILLIK YO‘LI

Islom davrida tasavvuf ta’limoti paydo bo‘ldi. Tasavvuf yo‘liga kirganlar o‘zlarini Alloh taolo vasliga yetar darajada poklashni ko‘zlab yashaydi. Shuning uchun so‘fiylar umrni “nafsga qarshi kurashdan iborat” deb biladi. Chunki shu tariqa komillikka erishiladi. So‘fiyning bosh maqsadini nafsga qarshi shunchaki kurash emas, balki qattiq urush olib borish tashkil etadi. So‘fiy ruhni “insonning buyuk ne’mati” deb hisoblaydi.

Demak, tasavvuf – ruh parvarishidan iborat bir umrlik yo‘l. Ruhni ravnaq toptirish uchun esa jismni yengish kerak. Jismning ehtiyoji bilan ruhning ehtiyoji – tamoman bir-biriga qarama-qarshi. Ruh ehtiyojini qondirish uchun tashlangan har bir qadam jismni yengish orqali, ya’ni jismdan kecha borish yo‘li bilan amalga oshadi. Jismni yengish uchun esa, avvalo, nafsni mahv etish lozim.

Ko‘rinadiki, ruhoniyatga yetish faqat va faqat riyozat, ya’ni azob-uqubatlarga bardosh berish, nafsoniyatni yo‘qotish orqaligina amalga oshadi. So‘fiylar ana shu mashaqqatni bajonu dil qabul qiladi. Shuni “yashashning mazmuni” deb biladi. Chunki inson faoliyati – yaxshilik va yomonlikdan, inson xususiyati fazilat va illatdan va hokazo boshdan-oxir ana shunday ikki o‘zaro zid jihatlardan iborat. Yomonliklarning bari – nafsoniyatdan. Yaxshiliklar manbasi bo‘lmish ruhoniyatga yetish nafsoniyatdan qutulish vositasi bilan qo‘lga kiradi.

YOMON AXLOQNI BARTARAF ETISH SHARAFI

Shunday qilib, nafsni yengishni “insonning barcha yomonlik, ya’ni illatlardan forig‘ bo‘lishi, faqat va faqat yaxshiliklar qiladigan kishiga aylanishi” deb tushunish kerak. Chunki tasavvufni o‘zining mafkurasi hisoblagan buyuk Alisher Navoiy asarlarida bunday targ‘ibotlarga ko‘p duch kelamiz.



Masalan, “Lison ut-tayr”da shunday baytlar borki, ular fikrimizni to‘la tasdiqlaydi:

Chun riyozat raf’ etib ruhoniyat,
Salb bo‘lg‘ach kimsadin nafsoniyat,

Qolmag‘ay ruhoniyatdin o‘zga hech,
Sen taxallufdin bu ma’ni ichra kech.

Bordur inson zotida oncha sharaf, –
Kim yamon axloqin etsa bartaraf,

Bo‘lmasa fir’avnlig‘ning payravi,
Qolmas ondin juz sifoti musaviy.

Bu yerda Fir’avn kofirlikning, Muso esa musulmonlikning ramzi bo‘lib kelyapti. Shundan ham bilsa bo‘ladiki, so‘fiylar, jumladan, uning Navoiy kabi targ‘ibotchilari nafsni “kofirlikka olib boruvchi maxluq” deb hisoblaydi va shuning uchun ham ular “chin musulmonlik nafsni yengish orqaligina qo‘lga kiradi” deb biladi. Tasavvuf, ko‘rinib turganidek, birgina ana shu nafs borasida ham islomni oliy maqomga ko‘tarish tarafdori bo‘lgan.

Soddaroq, tushunarliroq qilib aytadigan bo‘lsak, tasavvufning “faqru fano yo‘li” deyilishi ham, foniylikning eng ulug‘ insoniy orzu yanglig‘ tasvirlanishi ham – shundan.

Foniy bo‘lish uchun ham nafsni yengish kerak. Faqrni faxr bilish – so‘fiylarga payg‘ambarimizdan meros. Tasavvuf, avvalo, farz va sunnatga qat’iyan amal qilishdan boshlanadi.

MENING NAFSIM BALODUR...

Nafsni yengishni yalang‘och tarzda, ya’ni mutlaqo yeb-ichmaslik, yaxshi kiyinmaslik, tarkidunyochilik ma’nosida tushunmaslik kerak. So‘fiy ruhini shu darajada rivojlantirishi lozimki, u hech qachon va hech qanday boylikka, umuman, bu dunyoga aloqador biror narsaga bog‘lanib, uning quliga aylanmasin. Aksincha, nafs uning quli bo‘lsin. Shunday qilmasa, nafs uni yengib, oyoq-qo‘lini bog‘lab oladi. Dunyoda nafsning quliga aylanib qolganlar kammi? Eh-he... To‘libtoshib yotibdi. Xalq bilib aytgan: “Nafsim mening – balodur, har maqomga solodur”.

Inson hech qachon nafsini Shayton boshqarishiga izn bermasligi zarur.

JANNAT “QONUN”INI BUZGANLAR JAZOSI

Nafs-ku – insonga azaldan berilgan narsa. Aniqrog‘i, Alloh bandasini sinash uchun unga nafs berib qo‘ygan. Esingizda borki, Odam Ato bilan Momo Havo jannatdan aynan ana shu nafslarini yengolmaganliklari uchun quvilishdi. Chunki ular jannat “qonun”ini buzdi-da.

Lekin bu yerda boshqa narsa ham bor. Bu – Shayton. Shayton tezgina nafs bilan oshna kirishib oladi. Nafs bilan Shayton birikdimi, “Xudo urdi” deyavering, endi ruh bu ikkisini yengishi bag‘oyat mushkul kechadi.

ARSLONDAN SHAYTON, SHAYTONDAN NAFS KUCHLI

Yana bir qiziq savol tug‘iladi: “Xo‘sh, Shayton kuchlimi yoxud nafsmi?” So‘fiylar o‘rtasidagi suhbatlarda bu savol botbot ko‘tariladi. Hakim Termiziy, jumladan, shunday javob beradilar bu savolga: “Bir Shaytonning bir soat ichida halok aylaganini yuz och arslon bir suruv qo‘y ichida halok aylay olmas. Nafsning bir soat ichida qilgan ishini ham yuz Shayton qila olmas”. Demak, Shayton yuzta och arslondan ham dahshatli ekan. Nafs esa – yuzta Shaytondan ham xavfliroq.

Bu gaplarning ma’nosi juda chuqur, ularning mag‘zini yaxshilab chaqib olish kerak.

Shayx Abu Bakr Abu Varroq mana bunday hikmat aytadilar: “To‘rt dushman bordir va ulardan qutulmoqning to‘rt yo‘li bordir: Shayton, nafs, dunyo sevgisi, xalqqa aralashmoq. Shayton va nafsga muxolifat (qarshilik) etmoq kerak, dunyodan cheklanmoq, xalqdan ham qochmoq kerak. Kishi bu to‘rt yordamchi bilan qutulgaydir, yo‘qsa halok bo‘lur”.

Bu yerda bir izoh berib o‘tish kerakki, xalq, ya’ni aksariyat odamlar o‘z nafslarining quli bo‘lganliklari uchun ham so‘fiylar o‘zlarini xalqdan qochishga chog‘lagan. Bu yerdagi “xalqdan qochmoq”ni, avvalo, aynan “nafs bandalaridan yiroq yurish” deb tushunish kerak.

DEV — NAFS RAMZI

“Farhod va Shirin” – Navoiyning boshqa dostonlari kabi, hali sirlari oshkor bo‘lmay yotgan buyukdan-buyuk asar. Dostonda Farhodning Ahraman devini yengishi voqeasi bor. Ba’zilar buni “shunchaki ertakchilik” deb tushunishi hech gap emas. Holbuki, tasavvufiy adabiyotda dev – nafs ramzi. Tasavvuf, ya’ni komil inson bo‘lish yo‘lini tutgan kishi, avvalo, ishni nafsini yengishdan boshlashi kerakligini aytdik. Farhod ham – so‘fiy timsoli. U Iskandar tilsimini ochish yo‘lida devni mahv etadi.

Shu yerda bir nozik masala o‘rtaga tushadi.

Nafs devini inson o‘z-o‘zicha yenga oladimi? Hamma gap shundaki, bu – insonning o‘z qo‘lidan keladigan ish emas. Chunki nafs – juda-juda shirin narsa. U jismning ichiga yaxshilab o‘rnashib olgan. Uni o‘z badaningizdan quvib chiqarish yakka o‘zingizning qo‘lingizdan kelmaydi.

Tasavvufda pir-muridlikning qat’iy qoidaga aylanib ketgani ham – xuddi shu nafsni yengish bilan bevosita bog‘liq. Masala oydinlashdi: muridning nafsini yengishi pirning kuchi bilan bo‘ladi. Buning uchun murid nafs tarbiyasi yo‘lida tamom inon-ixtiyorini pirga topshiradi, pir murid nafsini botil qilish dasturini ishlab chiqadi va uning izchil ijrosi bilan uzoq shug‘ullanadi. Buning talay yo‘l-yo‘riqlari, vosita-usullari, zamonaviy ilmiy til bilan ifodalaganda, metod va metodologiyasi bo‘lgan.

Ana endi nafsni ko‘p odamlar tushunganday “faqat yeb-ichish, yotib-turish, dabdaba-yu as’asalarga o‘chlik” deb anglamaslik uchun asos yetarli bo‘ldi.


Kibr-havo ham – nafs. Uni ham yengmasa, insonni ko‘p yomon yo‘llarga yetaklayveradi.

Odamni shundan asrasin.

Shunaqa gaplar.

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti professori

BARHAYOT SIYMOLAR



MANGULIK SHU'LASI

Aslida o‘zining ilm-u amallari, vatanparvar hamda fidoyiligi bilan mangulikka kirish, toabad ziyo taratish hammaga ham nasib qiladigan ulug‘lik emas. Ammo turkiy xalqning xususan, o‘zbeklarning yaqin o‘tmishiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, o‘zining ma’rifatparvarligi, zukkoligi va dunyoqarashi bilan dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘sha olgan ziyolilarimizning sanog‘iga yetish qiyin. Ana shunday ulug‘ siymolardan biri, jadidlarning yetuk namoyandasi, samarqandlik Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy-Ajziydir.



U 1864-yilda Jomboy tumani hududidagi Halvoyi qishlog‘ida yashovchi hunarmand va bog‘bon oilasida tug‘ilgan. Otasidan juda erta yetim qolib, tog‘asining qo‘lida voyaga yetgan. Savod chiqarishida yangasining xizmatlari katta bo‘lgan. Samarqand va Buxorodagi madrasalarda tahsil olish barobarida arab, fors, rus va ozar tillarini puxta o‘rgangan. 15-16 yoshidan boshlab o‘zi ham an’anaviy usulda she’rlar yoza boshlagan.

Siddiqiy-Ajziyning ma’rifatparvar inson sifatida qilgan eng qimmatli ishlaridan biri otasidan qolgan katta bog‘ni sotib, turli millat bolalari va kattalar uchun alohida-alohida zamonaviy maktablar qurishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, u maktablardagi shart-sharoitni, o‘qitish usullarini ham zamonaviylashtirish tarafdori bo‘lgan.

Yaqinda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Samarqand viloyati bo‘limi hamda Jomboy tumani hokimligi hamkorligida ushbu alloma tavalludiga 160 yil to‘lishi munosabati bilan “Saidahmad Siddiqiy-Ajziy va uning adabiy merosi” mavzusida katta ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mazkur tadbir dastlab Jomboy tumanida joylashgan “Abdulazizi ibn Ahmad – Halvoyi ota” majmuasini ziyorat qilishdan boshlandi. So‘ngra barcha ishtirokchilar Siddiqiy-Ajziy tomonidan 1903-yilda qurilgan va ayni pallada uning nomi bilan ataladigan 19-umumta’lim maktabiga tashrif buyurishdi. Maktab jamoasi hamda faol o‘quvchilar bilan uchrashishdi. Maktabda tashkil qilingan muzey va unga qo‘yilgan turli eksponatlar ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi.

Ilmiy-amaliy anjumanning “Barkamol avlod” bolalar ijodiyot markazida bo‘lib o‘tgan asosiy qismini Jomboy tumani hokimi Qayum Sobirov kirish so‘zi bilan ochar ekan, yig‘ilganlar e’tiborini uzoq va yaqin o‘tmishda Jomboydan chiqqan ma’rifatparvar kishilarning hayoti va faoliyatiga qaratdi. Shuningdek, jadidlar harakati faoli Saidahmad Siddiqiy-Ajziyning qoldirgan katta ma’naviy-ma’rifiy merosi haqida batafsil to‘xtalib o‘tdi. Shundan so‘ng so‘zga chiqqanlar jadid ma’rifatparvarining ilmiy-ijodiy faoliyati, asarlarining bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalarini bildirib o‘tishdi.

– Siddiqiy-Ajziyning ma’rifatparvarligi natijasida butun Markaziy Osiyoda fan va maorif, adabiyot, jug‘rofiya, til masalasi gullab yashnaganligini alohida ta’kidlash zarur, – dedi Samarqand davlat chet tillar instituti professori Dilorom Salohiy. – U o‘z davrida zamonaviy bilim olish barobarida soatsozlik bilan shug‘ullangan. 1901-yilda muqaddas haj safarini amalga oshirgandan keyin sharq mamlakatlariga safar qilib islom dunyosidagi yangiliklar, dunyoviy bilimlar sari katta qadam tashlayotgan zamondoshlari bilan tanishish barobarida bilim va tajribasini oshirgan. Alloma ma’lum vaqt Jiddadagi rusiya elchixonasida tarjimonlik ham qiladi. Qozon, Orenburg, Kavkaz o‘lkalarida nashr qilinadigan gazeta va jurnallarda o‘nlab maqolalarini chop ettirdi. Keyinchalik u Samarqandga qaytib o‘zi tug‘ilgan Halvoyi qishlog‘ida o‘qituvchilik qila boshladi. 1908–1910-yillarda maktablar uchun darsliklar tuzib ularga o‘zining tarjima asarlarini ham kiritdi. Adabiyot va maorif sohasida samarali mehnat qilib “Ayn ul-adab”, “Ganjinayi hikmat” she’riy to‘plamlarini, “Mir’oti ibrat”, “Anjumani arvoh” kabi dostonlarini nashr qildirdi. Ajziyning amalga oshirgan ishlari, qoldirib ketgan ulkan ma’naviy merosi xalqimiz uchun bitmas-tuganmas boylik sanaladi.

Ma’rifatparvar alloma 1917-yilgi majburiy inqilob va chegaralarni qo‘shib olishdan keyingi vaqtlarda ham millat va xalqni ulug‘lash, zulm va qabohatga, savodsizlikka qarshi kurashish fikridan qaytmadi. Ayniqsa, 1918–1921-yillarda Samarqand viloyati adliya komissari o‘rinbosari bo‘lib ishlagan paytlarida inson huquqlari poymol etilishiga juda qattiq qarshilik ko‘rsatdi. U “Ilm-fan, til, davlat va qonun millat kelajagini belgilaydi. Mana shu to‘rtta narsaga erishmagan millat halokatga mahkumdir” degan fikrni doimo ilgari surib yashadi. Ta’lim-tarbiya ishlarini rivojlantirishni hamisha o‘ziga bosh maqsad qilib qo‘ydi. Maorif sohasidagi faolligi uchun 1926-yilda unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni berilgan.

Darhaqiqat, Jomboy tumanida ma’rifatparvar inson Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy-Ajziyning 160 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman barcha qatnashchilarning shuurida, hech shubhasiz, ajdodlarimizga nisbatan yuksak ehtirom uyg‘otdi.

Aslida nurli kelajagimiz, farzandlarimizning baxt-u kamoli uchun qayg‘urib yashagan har bir jadidning hayoti va faoliyati biz uchun tengsiz qadriyat, hijjalab o‘qilishi lozim bo‘lgan bebaho kitobdir. Biz ularning ilmiy merosiga qanchalik ko‘p murojaat qilsak, qaddimiz shunchalar yuksalib boraveradi.

Normurod MUSOMOV,
jurnalist

YANGI LOYIHA

ZAMONAVIY MUTOLAA

Xalqaro tadqiqot instituti o‘tkazgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 2016-yili dunyoning eng kitobxon millati xitoyliklar bo‘lishdi. So‘rovnomaga javob bergan xitoyliklarning 70 foizi har kuni yoki har haftada aqalli bir marta kitob o‘qishini ta’kidlagan. Ikkinchi o‘rinni rossiyalik (59 foiz), uchinchi o‘rinni ispaniyalik (57 foiz) kitobxonlar egallashdi.

Hozirgi kunda kitob o‘qishning turli xil usullari va vositalari keng tarqalgan. Kitob topish ham muammo bo‘lmay qolgan. Kishi qayerda istasa, o‘sha yerda, qay holatda bo‘lishidan qat’i nazar mutolaa qilish imkoniyatiga ega. Elektron kitob o‘qiyverib ko‘z toliqmasligi uchun maxsus “Bookreader”lar mavjud. Faqat bizda birgina narsa – xohish bo‘lsa kifoya...



XXI asrga kelib yoshlarni kitobga jalb etish qiyin masalaga aylanib borayotgani sir emas. Atrofimizni turli xil gadjetlar o‘rab olayotgani, chalg‘ituvchi narsalarning tobora ko‘payib ketayotgani kitobxonlik darajamizga ham putur yetkazmay qolmayapti. Shunday vaziyatda butun mamlakat yoshlarini kitobga qiziqtiradigan, qamrab oladigan, o‘zining qulayligi va jozibadorligi bilan ajralib turadigan kitobxonlik bo‘yicha kattagina platformaga ehtiyoj seziladi. Ana shunday kitobxonlik “maydon”i yaratildi va kutilgan natijaga erisha boshladi. Bu – Yoshlar ishlari agentligi hamda Xalq banki tomonidan tashkil etilgan “Mutolaa” loyihasidir.

Loyiha ilova shaklida bo‘lib, qurilmaga yuklab olinadi va qo‘l telefonimizdagi doimiy hamrohimizga aylanadi. Hozirgi kunda ilovani 900 mingga yaqin kishi yuklab olgani quvonarli hol. Bu – loyihaning muvaffaqiyatidan dalolat. Ayni ko‘rsatkich kundan kunga ortib borayotir. Endi o‘tirib kitob o‘qishga vaqt yo‘q, degan bahonalarga o‘rin qolmaydi. Ilovadagi kitoblarni istalgan joyda, xohlagan paytingizda mutolaa qilishingiz yoki tinglashingiz mumkin.

Loyiha yil oxirigacha bir million kitobxonga ega auditoriyani qamrab olish, o‘zbek adabiyotini xorijga eksport qilish hamda bolalar adabiyoti bozorini yaratish kabi uchta asosiy maqsadni ko‘zlab ish olib bormoqda.

Loyiha bugungi kunda yoshlar ko‘p qimmatli vaqtini telefonda o‘tkazib, mutolaadan uzoqlashgani, chop etilayotgan kitoblar adadi yoshlar soniga mutanosib emasligi, kutubxonalar yetishmasligi, elektron kitoblarning tarqoqligi, kitoblarning sifatli audio formatdagi shaklini yaratish tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi va bolalar adabiyoti inqirozi kabi kun tartibidagi muammolarga yechim o‘laroq vujudga keldi.

Adabiyotshunos, shoir va yozuvchilarni, o‘zbek va jahon adabiyotining sara namunalarini bir ilovaga jamlash, taniqli suxandon va dublyaj ustalari orqali asarlarni audiolashtirish, bolalarga oid asarlarni yoshga qarab ajratish, mamlakatda mutolaa ko‘lamini kengaytirish maqsadida butunlay yangi “Kitob-kino” kabi yo‘nalishlardan foydalanish uchun ko‘plab targ‘ibot mahsulotlarini tayyorlash loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlar jumlasidandir.

Hozirgacha ilovaga 1310 dan ortiq audio va 1610 ga yaqin elektron kitob joylashtirildi. Bugungi tig‘iz va shoshilinch hayotimiz hisobga olingan holatda, audio-kitoblarga katta e’tibor qaratilyapti. Boir Xolmirzayev, Dildora Rustamova, Nargiza Mirzayeva, Elbek Mirzohidov, Muhammadali Abduqunduzov, Mahmud Ismoilov, Behzod Muhammadkarimov, Ramziddin Sayfiyev, Muslima Murodova kabi mashhur, iste’dodli aktyorlar va suxandonlar yordamida kitoblar ovozlashtirilyapti. Kitobxonlarda endi ko‘chada, transportda, jismoniy mehnat jarayonlarida bevosita mutolaaga oshno bo‘lish imkoni mavjud.

Bolalar adabiyotiga ham alohida urg‘u berilmoqda. Loyihaning bolalar adabiyoti bo‘limi qoshida “Bolalar ijodkorlari maktabi” faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – loyiha doirasida yosh ijodkorlar jamoasini tashkil etish, ulug‘ ajdodlarimizning bolalikdagi siymolari aks etgan kitoblarni ko‘paytirish va zamonaviy-milliy qahramonlarni yaratishdir.

Ilovaga yuklangan barcha kitob muqovalari sun’iy idrok tomonidan yaratilgan. Bundan tashqari, kitoblarni audiolashtirishda ovozni klonlashtirish integratsiyasi ham ancha takomillashtirildi. Bu nima degani? Endi siz bir asarni turli ovozlarda, eng hayratlanarlisi esa, marhum ijodkorlarning ovozida ham tinglash imkoniga ega bo‘lasiz. Bu jarayonda, albatta, ovozlarning mualliflik huquqiga alohida e’tibor qilinadi.

Har qanday davlatning, mamlakatning, xalqning yagona najoti – ilmda. Ilm uchun yagona vosita kitob va kitobxonlikdir. Hamisha shunday bo‘lib qoladi. “Mutolaa” loyihasi esa kitobxonlik targ‘iboti yo‘lida “yo‘lchi yulduz” vazifasini o‘tashga bel bog‘laydi va siz kitobxonga eng yaxshilarini ilinadi.

Gulasal QODIROVA,
adabiyotshunos

Barcha qurilmalar uchun “Mutolaa” ilovasi!
Google Play

JADIDSHUNOSLIK

TADQIQOTLARDA YANGI BOSQICH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 31-avgust kuni poytaxtimizdagi Shahidlar xotirasi xiyobonida davlat, jamoat tashkilotlari vakillari va nuroniylar bilan birgalikda har yildagidek qatag‘on qurbonlarini yod etish marosimida qatnashdi. Xiyobondagi ramziy qabr yonida ularning ruhiga bag‘ishlab Qur’on tilovat qilindi, tarixiy haqiqatni tiklash, yoshlarni Vatan ozodligi, mustaqilligi yo‘lida qahramonona kurash olib borgan, mustabid chorizm, sovet mustamlakachiligi qurboni bo‘lgan, o‘zga yurtlarda surgun, qamoq azobini tortgan, qatag‘onning o‘tkir tig‘idan halok bo‘lganlar xotirasi eslab o‘tildi.

Ma’lumki, xalqimiz o‘sha davrlarda ko‘plab azob-uqubatlarni boshidan kechirdi. Uzoq davom etgan bunday sinovli yillarda millatning eng sara farzandlari, munavvarlari, jadidlarining hurlikka erishish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lish yo‘lida olib borgan mardonavor kurashlari tarixi hozirga qadar alohida va mukammal tarzda yoritib berilgani yo‘q.


Mustamlaka davrida yurtimizda juda ko‘plab din peshvolari – qorilar, imomlar, mudarrislar, ziyolilar va ularning izdoshlari, begona – “yot unsur”lar, burjua millatchisi, bosmachi, qo‘rboshi, lashkarboshi kabi turli soxta ayblovlar bilan uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm etilgan, jismonan yo‘q qilingan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlari bo‘lgan yurtdoshlarimizning sha’nisharafi haqida achchiq, lekin bor haqiqatni aytish borasida tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘rinda Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Mustaqillik bayrami arafasida, bugungi tinchlik, erkinlik sharoitida qahramon bobolarimizning pok nomlarini eslash, tabarruk xotiralariga ehtirom ko‘rsatish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Shu bois dunyodan o‘tgan vatandoshlarimizning ham qadrini tiklayapmiz. “Inson – aziz, xotira – muqaddas” degan ezgu shior hayotimizdan mustahkam joy olyapti. Tabarruk yodgorlik majmualari bunyod etyapmiz. Ma’rifatparvar bobolarimiz haqida badiiy va ilmiy asarlar, kinofilmlar yaratilmoqda. “Xotira” kitoblari nashrga tayyorlanmoqda. Xalqaro konferensiyalar o‘tkazilmoqda. Mana, so‘nggi uch yil ichida 1 ming 200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonlarining nomini oqladik. Bu nimani anglatadi? Bu – adolat sinmasligini, haqiqat baribir tantana qilishini anglatadi”.

Tarixiy haqiqatni tiklash maqsadida qatag‘on qurbonlarining tabarruk ism-shariflarini ko‘p jildlik “Qatag‘on qurbonlari” kitobida qayd etish, shu majmuada barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga yozib qo‘yish ko‘rsatildi. Chet elda hamda yurtimizdagi qator arxivlarda saqlanayotgan katta ko‘lamli manbalar, hujjatlar, qo‘lyozmalar, foto hujjatlar, yozishmalar, mahbuslarga tegishli hujjatlar haligacha to‘liq o‘rganilmagani ta’kidlandi. Bu borada xorijiy mamlakatlarga ilmiy ekspedisiyalar tashkil etishni keng yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilab berildi.

Yurtboshimizning ilm va ijod ahli uchun ko‘rsatayotgan ko‘magi boshqalar kabi menga va shogirdlarimga ham g‘ayrat-shijoat bag‘ishladi. Ayniqsa, har bir viloyatda Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini barpo etish tashabbusi tufayli ana shunday mazlumlarning qismatiga yangi nuqtayi nazar bilan qarash boshlandi. O‘zbekistonda olib borilgan mudhish qatag‘on siyosatining fojiali oqibatlari va qatag‘on qurbonlari taqdirini tadqiq qilish, ularni nomma-nom aniqlash, xotirasini abadiylashtirishdek savobli tarixiy-ilmiy ishlarni bajarish kun tartibidagi muhim vazifalar qatoridan joy oldi.





Prezidentimizning 2024-yil 19-iyulda “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarorida qayd etilganidek, “1937–1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan xalqimizning 100 mingdan ziyod vakillari qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan. Bu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunlarga jo‘natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a’zolari bo‘lgan.

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha keyingi yillarda yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 1 ming 200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonlarining nomlari oqlanganini alohida qayd etish lozim.

Ushbu jumlalarni o‘qigan har bir inson qatag‘onning dahshatli qamrovi nechog‘lik keng va qonli bo‘lganini yaqqol his qilishi shubhasiz, albatta. Shukrki, bugun ana shu tariximizning yopiq kunjaklariga ham adolat nurlari tushmoqda. Darhaqiqat, istiqlol davrining yoshlari mustaqillikdek ulug‘ ne’matga oson erishilmaganini, bu yo‘lda xalqimiz boshidan kechirgan mehnat-mashaqqatlarni chuqur anglamoqlari lozim.

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda butun xalq ommasi ongida Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini teran shakllantirish, ularni bugungi tinch, erkin hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash juda muhim sanaladi.

Andijon davlat universiteti tuzulmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyida ham bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, muzey xodimlarining izlanishlari natijasida birinchilardan bo‘lib “Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi. Andijon viloyati (1865–1991)” nomli ikki jildlik to‘plam chop etildi. Bu asarning nashriga tegishli moddiy sarf-xarajatlarni Andijon viloyati hokimligi o‘z zimmasiga oldi.

Mazkur kitoblarda o‘sha mash’um yillarda Andijon uyezdi, Andijon okrugi va Andijon oblasti bo‘yicha qatag‘on qilingan 4077 nafar yurtdoshimiz haqida ma’lumot keltirilgan. Aslida har ikki imperiya davrida Andijon viloyatidan qatag‘on qilinganlar soni ancha ko‘p bo‘lgan. Ularni nomma-nom aniqlash bo‘yicha tadqiqot-qidiruv ishlari davom ettirilmoqda. Andijon viloyati sarhadlarida qatag‘on qurboni bo‘lganlar hayoti, faoliyati, fojiasini ochib beradigan raqamlar hozirgacha to‘liq emas. Bu borada hozirgacha nomlari noma’lum bo‘lgan insonlar haqidagi barcha manbalar ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

MILLAT FIDOYILARI

MA’RIFATPARVAR MUALLIMLAR: RAHIMIYLAR

Rahimiylar oilasi o‘z vaqtida dehqonchilik bilan shug‘ullandi. Biroq bu oila eng olijanob kasb – muallimlik bilan juda katta e’tibor qozondi. Oilaning otasi Mulla Rahimjon domla muallim sifatida yangilikka qiziquvchan, maktablarga kirib kelayotgan texnika vositalariga, ilg‘or o‘quv usullariga, yangi darsliklarga befarq qaramaydigan o‘qituvchi edi. Shunga ko‘ra uni “qadimchilar” toifasiga kiritib bo‘lmasdi.



Bu hol uning o‘g‘illari va qizlari faoliyatida ham o‘z ifodasini topdi. Ayniqsa, uning katta o‘g‘li Sobirjon Rahimiy jadid pedagogi sifatida samarali faoliyat olib bordi. Keyingi o‘g‘li Shokirjon Rahimiy jadidlik harakatining yirik namoyandasi, uchinchi o‘g‘li esa kelajakda texnika bo‘yicha yirik olim – akademik sifatida Texnika universitetida faoliyat ko‘rsatdi. Qizlari Adolatxon, Salomatxon, Xosiyatxon qizlar uchun ochilgan dastlabki jadid maktabida dars berishdi. Kelini Bekoy Rahimova esa Toshkentda qizlar uchun ochilgan birinchi jadid maktabining tashkilotchisi edi.

1907-yili Toshkentning Taxtapul mahallasida Mulla Rahimjon domla vafot etadi. Otasi tashkil qilgan maktabda o‘qigan, muallimlikda unga ko‘maklashib yurgan Sobirjonni mahalla faollari otasi o‘rniga muallim etib tayinlashadi. Bu haqda Sobirjon Rahimiyning o‘g‘li, marhum olim, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Hikmat Sobirov quyidagilarni yozib qoldirgan edi: *“1907-yilda buvam Mulla Rahimjon vafot etganidan keyin Taxtapul mahallasi fuqarolari tavsiyasi bilan buvam ochgan maktabni davom ettirish otam Sobirjon Rahimiy zimmasiga yuklatilgan. Otam ham muallimlikka katta ixlos qo‘ygan odam edi. O‘zbekcha, tatarcha, ruscha ro‘znomalarni doim o‘qib, mutolaa qiladigan yosh o‘qituvchi otam bobomizdan qolgan maktabni jadid usulida yangi maktabga aylantirgan. Maktab “Sobir domla maktabi” nomi bilan mashhur bo‘la boshlagan. O‘qituvchilar yetishmaganidan onam Bekoy Rahimova, ammalarim Adolatxon, Salomatxon, Xosiyatxon, keyinroq amakim Shokirjon Rahimiy ham o‘qitishda otamga ko‘maklashib, ayrim fanlardan dars berganlar”.*

Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Rustambek ibn Yusufbek hoji kabi Toshkentning yetakchi pedagoglari ta’sirida hamda o‘qitishda yangilanish tarafdori bo‘lgan Sobirjon otasining “Rahimiya” maktabini bir yil davomida butkul jadid maktabiga aylantirdi, iloji boricha maktab darsliklarini yig‘di. Endi jadid maktabi “Rahimiya”ning e’tiborli o‘lka ziyolilari, maktabdorlari orasida oshib bordi. 1910-yillar boshida Hamza Hakimzoda Niyoziy Toshkentda Sobirjon Rahimiy xonadonida bir necha oy yashab, Beshog‘och dahasida jadid maktabi ochadi. Bu ishda katta tajribaga ega bo‘lgan do‘sti Sobirjon yaqindan yordam beradi.

Sobirjon Rahimiyning turmush qurish masalasi ham ayni shu jadid maktabini ancha yuksaltirgan davrga to‘g‘ri keldi. U 1910-yilda uzoqroq qarindoshlik robitalari bilan bog‘langan Abdurazzoq qizi, muallimlikka mehr qo‘ygan Bekoyga uylanadi.

Bekoy (Abdurazzoq qizi) Rahimiy 1893-yilda tug‘ilgan. Olti yoshidan mahallada ochilgan diniy maktabda o‘qiydi. Onasi yordamida o‘qish va yozishni o‘rganadi. Qur’on sura va oyatlarini yod olib, “otinoyi” bo‘lib yetishadi. Tez orada Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklarini mustaqil ravishda o‘rganib, xalifalik – muallimlarga yordamchi sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. O‘qitishda yangi usulning ikki tarafdori – Sobirjon va Bekoy hayoti va faoliyatida yangi davr boshlanadi. Bekoy bir yillik faoliyati davomida xalifalikdan “usuli savtiya”da mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi muallim darajasiga ko‘tarildi.

Bekoy Abdurazzoq qizi boshchiligida 1912-yilda Toshkentning Taxtapul mahallasida qiz bolalar uchun birinchi yangi usuldagi jadid maktabi ochiladi. Alohida ta’kidlash kerak, Bekoy Rahimova ilm-fanga, ta’lim-tarbiyaga qiziqishi, unga intilishi bilan boshqalardan ajralib turar edi. Ayniqsa, Sobirjon Rahimiyning bu ishda Bekoyga ko‘rsatgan yordami beqiyos katta bo‘ldi. Chunki Sobirjon Rahimiy o‘z davrining ulug‘ pedagog va metodistlari Avloniy, Munavvar qori bilan yaqin hamkorlik qilgan. Umuman, bu davrda ta’lim-tarbiya tizimida yuz berayotgan buyuk o‘zgarishlar, yaratilayotgan asarlar Sobirjon Rahimiy boshchiligida ular diqqat-e’tibori markazida turgan.

Toshkentning Eski shahar qismida ayollar uchun birinchi usuli jadid maktabining ochilishi katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Ushbu maktabning shuhrati tezda shahar bo‘ylab keng tarqaldi. “Sadoyi Turkiston” gazetasida, hatto Qo‘qonda chop etiladigan “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida tabrik-maqola e’lon qilinadi. Maktabda imtihon tashkil etildi: o‘quvchi-qizlar imtihon ahli, ota-onalar oldida olgan bilimlarini namoyish etdilar. Imtihon ahli farzandlari bilimidan mamnun bo‘lishdi. Bu imtihondan keyin 1914-yilda Toshkentning Ko‘kcha dahasida qiz bolalar uchun yana bir jadid maktabi ochildi. Shu tariqa qiz bolalar uchun jadid maktablari tarmog‘i Vatanimiz bo‘ylab kengayib bordi.

1917-yil jadid mutafakkirlari, jumladan, jadid pedagoglari uchun quvonch va iztiroblarga to‘la yil bo‘ldi: Fevral inqilobining Romanovlar taxtini barbod qilishi ularda millat va Vatanning mustamlaka zulmidan ozod bo‘lishiga ishonchni kuchaytirdi. Jadid pedagoglari, xususan, Rahimiylar Turkiston Muxtoriyati e’lon qilingan 1917-yil 27-noyabr tunini zo‘r mamnuniyat bilan kutib oldilar. Ammo bu safar taqdir ularga kulib boqmadi, aksincha, yuz o‘girdi. Muvaqqat hukumat ag‘darilib, yurt bolsheviklar qo‘liga o‘tdi. Turkiston muxtoriyatini oyoqqa turishga ulgurmasdanoq yanchib tashladilar.

Qanday tuzum, qanday sharoit bo‘lmasin, jadid mutafakkirlarining asosiy vazifasi millatni o‘zligini tanitish, ilm-ma’rifatli qilish, jaholatga botgan hayotidan ogoh etish edi. 1918-yilning 25-noyabridan Maorif xalq komissarligining buyrug‘iga muvofiq an’anaviy mahalliy maktablar ham, rus-tuzem maktablari ham, usuli jadid maktablari ham rasman tugatildi. Ularning hammasi sovet maktablari tasarrufiga o‘tdi. Amalda o‘zbek va rus maktablari faoliyat ko‘rsata boshladi.

Sobirjon Rahimiyning g‘ayrati, yangilikka chanqoqligi ukalari Shokirjon va G‘ofurjon Rahimiylarga ham o‘tgan edi. Shokirjon Rahimiy dastlab pedagogik mahoratini akasining uy maktabida namoyon qilishga muvaffaq bo‘ladi.

Sobirjon Rahimiy tashkil qilgan maktab 1918-yilda Toshkentdagi sovet maktablari ro‘yxatiga kiritilib, u namunali “Sobir domla maktabi”ga aylanadi.

Shu yili tashkil qilingan birinchi Musulmon dorilfununining darslar dasturini tuzish va talabalarni jalb qilish ishlarida Sobirjon Rahimiy beminnat yordam ko‘rsatadi.

Sobirjon Rahimiy 1918-yildan 1930-yilgacha Oktyabr rayonidagi sobiq 18-maktab, keyinroq 53-maktab direktori vazifasida ishlagan.

Qahramonimiz qo‘lida ta’lim olgan o‘quvchilar respublikamizda ko‘zga ko‘rinarli kadrlar bo‘lib yetishdi. Bular jumlasida general Sobir Rahimov, birinchi ayol vazirlardan Vosila Sodiqova, arxitektor Jahongirov, shoir Quddus Muhammadiy, professor Homil Yoqubov singari ziyolilar bor.

1920-yilda Sobirjon Rahimiyning turmush o‘rtog‘i Bekoyni Toshkent shahrida ochilgan 38-maktabga ishga taklif etishadi. U dastlab boshlang‘ich sinf muallimi, keyinchalik yuksak pedagogik qobiliyati e’tiborga olinib, maktab o‘quv bo‘limi mudiri lavozimiga tayinlanadi.

Shu bilan birga, ayollar o‘rtasida savodsizlikni tugatish kursida ham ishlaydi. U har qanday o‘quv jarayonida o‘zini yetuk pedagog sifatida namoyon qiladi. O‘qituvchilik faoliyatiga, xalq, Vatan ishiga bunday sidqidildan munosabati tufayli uni Toshkent shahar mehnatkashlari sovetiga deputat etib saylaydilar.

1926-yilda “Eski va yangi maktab” nomli kinofilm suratga olinadi. Sobirjon Rahimiy bu filmda yangi maktab o‘qituvchisi, taniqli aktyor Rahim Pirmuhamedov esa eski maktab domlasining rolini ijro etgan. Bu film orqali yangi maktablarning obro‘si va o‘qituvchining sharafli mehnati aholiga keng targ‘ib etilgan.

1930-yil Sobirjon Rahimiy o‘z ma’lumotini oshirish maqsadida ToshDUning pedagogika fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1934-yilda tamomlaydi. O‘qish davrida hukumat topshirig‘iga asosan 1929-1930-yillarda Chinoz tumanida, 1931-yilda Xorazm viloyatining Mang‘it tumanida, 1932-yilda Tojikistonning Xovaling rayonida uzoq muddatli xizmat safarlarida bo‘lib, madaniy-oqartuv va o‘qituvchi kadrlar tayyorlash ishlariga yaqindan yordam beradi. Toshkentga qaytganida esa “Toshselmash” zavodi qoshidagi kurslarda, 1932-1933-yillarda kechki ishchilar universitetida til va adabiyotdan dars o‘tadi.

Qatag‘onning avj pallasida – 1938-yilda Rahimiylar xonadonining eng faol jadid mutafakkiri, pedagogi, 20 dan ortiq pedagogik asarlar muallifi Shokirjon Rahimiy otib o‘ldirildi. Jadid maktablari tashkilotchisi Sobirjon Rahimiy esa Sibirning Kolima lageriga surgun qilinadi.

Xotin-qizlar uchun jadid maktablarining birinchi tashkilotchisi, ilk jadid ayollarimizdan biri, tug‘ma o‘qituvchilik qobiliyati sohibasi Bekoy Rahimiyning muallimlik faoliyatiga ham 1938-yilda nuqta qo‘yiladi.

Nargiza SOBIROVA,
mustaqil tadqiqotchi

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Isomiddinxo‘ja Nurmamedov – Kosonsoy rayoni, Ponixon qishlog‘idan. Millati o‘zbek, savodi bo‘lmagan.

Mulla Asqar Nazarmatov – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. Diniy maktabda o‘qigan, uylangan, sudlanmagan.

Mulla Mamajon Qoraboyev – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Kushon qishlog‘ida istiqomat qilgan. Diniy faoliyat va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Uylangan, sudlanmagan.

Bobomuhammad Dadajonov – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘idan. O‘zbek, uylangan, savodi bo‘lmagan, sudlanmagan.

Sayfuddin qori Abdujalilov – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘ida yashagan. Millati o‘zbek. Imomlik qilgan. Uylangan, sudlanmagan.

Shukurboy Sheraliyev – Namangan rayoni, Yoztepa qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Qo‘rboshi Omon Polvonga yordam bergan. Uylangan, sudlanmagan.

Abdullaboy Mansurboyev – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Mirzarovot qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Yer-suv islohoti davrida 14 tanob yer olgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan, ajrashgan, sudlanmagan.

Bahrom Maqsudov – Kosonsoy rayoni, Chambash qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, uylangan, sudlanmagan.

Xolmamad Ustaboyev – Namangan rayoni, Kulqo‘rg‘on qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Eshon Dadaxon Nosirxonovning qarindoshi bo‘lgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan, uylangan, sudlanmagan.

Inomjon qori Muhammadaminov – Mashhad qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Madrasada o‘qigan, uylangan, sudlanmagan. Nosirxonto‘ra va uning faol yordamchisi Madrayimni aksilinqilobiy faoliyatini bila turib ularning yashirinishiga yordam bergan. Ularni oziq-ovqat bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 14–78-moddasi bo‘yicha jinoyatni sodir etganlikda ayblangan.

Hojiboy Abduboyev – Chust rayoni, Kaklikqo‘rg‘on qishlog‘idan. Sobiq volost boshqaruvchisi. Inqilobgacha qishloq oqsoqoli bo‘lgan. Istambek qo‘rboshiga yordam bergani uchun GPU tomonidan javobgarlikka tortilgan. Istambekdan bosmachilik faoliyatini amalga oshirayotgan vaqtda uning guruhini o‘q-dori bilan ta’minlash uchun 800 rubl olgan. Bir necha bor Istambekni yashirgan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayblangan.

Abdullajon qori Madrayimov – Chust rayoni, Kaklikqo‘rg‘on qishlog‘idan. Millati o‘zbek. 1922-yildan 1925-yilgacha imomlik qilgan. 1929-1930-yillarda kolxozda tabelchi bo‘lgan. 1930-yilda Hojiboy Abduboyev bilan hamkorlikda Istambek qo‘rboshini yigitlari bilan birga yashirgan. O‘zSSR JK 14–78-moddasi bo‘yicha ayblangan.

Ibniyamin Yusufboyev – Namangan rayoni, Gulqo‘rg‘on qishlog‘idan. Millati tojik. Diniy xizmatchining o‘g‘li, uylanmagan. Akasi Muqim Nosirxonto‘raning yordamchisi bo‘lgan. O‘zSSR JK 14–78-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyatni sodir etishda ayblangan.

Akromxonto‘ra Mallaxo‘jayev – Namangan shahridan. Millati tojik. Taniqli mudarris bo‘lgan. Yer-suv islohoti davrida xo‘jaligi tugatilgan. 1929-yilda bosmachilar bilan aloqadorlikda ayblanib hibsga olingan.

Zikriyoxo‘ja Akromxonov – Namangan shahridan. Akromxonto‘raning o‘g‘li, savodli, uylanmagan, sudlanmagan. Ranjit yaqinidagi jangdan so‘ng yashiringan. Nosirxonto‘raning birlashgan guruhiga mansub Madumarning guruhidagi yigitlarni Namanganda yashirinishlariga yordam bergan. O‘zSSR JK 14–78-moddasi bo‘yicha ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

IBRAT

VODILNING JADID SHOIRI

Farg‘onada Vodiliy taxallusi bilan tanilgan ijodkorlardan biri – iste’dodli shoir Rauf Parfining ustozi Abdurahmon Vodiliy bo‘lsa, ikkinchisi – ulug‘ olim, mufaqqih, muarrix, shoir va adib Oxunjon qori Vodiliy (1872–1958, yana bir taxallusi Asiy)dir. Butun umrini ilm va ziyo tarqatishga sarf etib, 120 dan ortiq ilmiy-ma’rifiy asarlar yozib qoldirgan bu ulug‘ zot nafaqat Vodil xalqi, balki millatimiz ma’naviy xazinasining bebaho gavharlaridan biridir.

Oxunjon qori 1872-yilda Muhammad Rasul oqchi (oq gazmol do‘kondori) xonadonida tavallud topadi. Unga yaxshi niyat bilan Oxunjon deb ism qo‘yadilar. Yetti yoshga yetgandayoq xat-savodi chiqqan bolani Qur’on ta’limini olishi uchun qo‘shni Chimyon qishlog‘iga olib borib, u yerdagi maktabdor Muhammad Aminga topshiradilar. Oxunjon tez fursatda Qur’oni karimni hifz qiladi va ustoz ijozati bilan qishloqqa qaytadi.

Yozma manbalarda Oxunjon qorini “Zubdayi oliyjanob” – “Ulug‘lar afzali”, “Oftob shar’din” – “Shariat oftobi”, “Kashshof haqoyiq” – “Haqiqatlarni ochib beruvchi”, “Zu funun” – “Turli fanlar sohibi” kabi sifatlar bilan ta’riflashgan.

1943-yili markaziy hukumat ruxsati bilan Toshkentda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari idorasi ochiladi. Yangi ochilgan idora ishlarini tashkil etish va yuritish uchun muftiy Abdulmajidxon eshon hazratlari Oxunjon qorini Toshkentga chaqiradi. Lekin qori o‘z uzrini aytadi. Muftiy esa hech bo‘lmasa ish boshlab berish uchun loaqal biror yil kelib turing, deb ikkinchi marta odam yuboradi. Shunda ham qori bir qancha sabablar ko‘rsatib, qabul qilmaydi.

Bu davr mobaynida u ko‘plab mo‘tabar va nodir kitoblarni oqqa ko‘chirgan. Oxunjon qori Vodiliy qilqalam sohibi bo‘lib, xatlarni juda chiroyli bitgan. U xattotlikdan tashqari iste’dodli shoir bo‘lib, she’rlarida Asiy taxallusini qo‘llaydi. Bu ustozining taxallusiga muvofiq holda “mahzun” degan ma’noni anglatadi. Ba’zan tug‘ilib o‘sgan qishlog‘iga nisbat bergan holda Vodiliy taxallusidan foydalangan.

Hozirda mavjud bo‘lgan qo‘lyozmalarda Oxunjon qori qalamiga mansub yuzga yaqin asosan o‘sha davrda bo‘lib o‘tgan muhim voqealar: masjid va madrasalarning qurilish sanasi, Xonaqoh madrasasida uyushtirilgan turli xatmonalar va o‘sha davrda yashab o‘tgan buyuk shaxslarning vafotlariga bag‘ishlab yozilgan ma’lumotlar ma’lum.

Oxunjon qori 1958-yil 9-mart kuni 86 yoshida vafot etadi. Uning vafoti munosabati bilan Abdulaziz G‘olib Marg‘iloniy va Muhammad Muso Bekiy tomonidan yozilgan xotira va marsiyalar saqlanib qolgan.

Oybek BARZIYEV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Duoning ijobati

– Nodirbek Abdusattorov, O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov bilan tushgan suratingizga tez-tez duch kelamiz. Ushbu surat tarixi haqida aytib bersangiz.

– Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov bilan uchrashganimda 8 yosh edim.

2012-yilda Sloveniyaning Maribor shahrida shaxmat bo‘yicha bolalar va yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan jahon chempionatida g‘oliblikni qo‘lga kiritdim. O‘sha yili Toshkent shahrida jahonning supergrossmeysterlari ishtirokida Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE)ning Gran-pri uchrashuvlari o‘tkazildi. Ushbu musobaqalarning ochilish marosimiga meni ham taklif etishdi.

Men bu yerda ko‘p taniqli shaxslar bilan uchrashdim. Ammo qattiq hayajonlanganim, yoshim kichikligi sababli kimlar bilan suhbatlashganim, suratga tushganligimni to‘liq tasavvur qilolmasdim. Keyinchalik, yoshim ulg‘ayganidan so‘ng bildimki, o‘sha marosim menga unutilmas in’omlar bergan ekan.

O‘shanda shoir Erkin Vohidov yonimga kelib, bobolarcha mehr bilan peshonamdan o‘pib qo‘ygan edi. Ustoz shoirning nurli tabassumi, mehrli ovozi xotiramga muhrlanib qoldi.

“Kel, o‘g‘lim, bir rasmga tushib qo‘yay sen bilan. Alloh omadingni bersin. Bolam, kattalar orasida ham jahon chempioni bo‘lgin”, deb duo qildi. O‘shanda gazetasida shaxmatga bag‘ishlangan maqolasi chiqishini, birga tushgan suratimizni unga ilova qilishini aytgandi.

Shoirimizni ustoz desam erish tuyulmasmikan? Zero, u kishining shaxmatga bo‘lgan muhabbati, dona surishdagi mahorati haqida bir qancha manbalarda o‘qir ekanman, o‘zimda ustoz deyishga jur’at topdim. Mana, oradan yillar o‘tib qayta-qayta chempion bo‘ldim. Agar Erkin Vohidov hayot bo‘lganlarida duolari ijobat bo‘la boshlaganini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan bo‘lardi.

Menda unutilmas xotiralar va mana shu qimmatli surat qoldi.

– Chempionimiz sport mashg‘ulotlaridan ortib, mutolaaga ham vaqt ajratadimi?

– Albatta. O‘zimning shaxsiy kutubxonam bor. Unga 300 dan ortiq kitoblarni yig‘ganman. Ularning asosiy qismini shaxmatga bag‘ishlangan kitoblar tashkil qiladi. Badiiy adabiyotlarni elektron shaklda o‘qiyman, audio shaklda eshitaman. Xorijiy tillarni o‘rganish qulay bo‘lishi uchun navbat bilan rus va ingliz tillarida yozilgan kitoblarni ham o‘qiyman. Qolaversa, jahon adabiyotini o‘z tilida o‘qishning o‘zgacha gashti bor. Endi navbat milliy adabiyotimiz durdonalariga.

Biz Nodirbekka yangi zafarlar tilab qolamiz. Erkin Vohidov yozganidek:

Shaxmat ko‘p o‘ynalgan,
she’r ko‘p yozilgan,
Odatiy yurishlar hammamizga yod.
Bobolar o‘ynagan o‘yinlar bilan
Ular nabirasin qilib bo‘lmas mot.

Otabek BAKIROV,
Facebook



KITOB – BITMAS XAZINA

Boshlanishi 1-sahifada.

Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni:


– Yaqin besh-olti yil ichida odamlarning kitobga munosabati, fikri, qiziqishlari avvalgiga qaraganda beqiyos darajada o‘zgaryapti. Albatta, yaxshilik tomonga. “Bitmas xazina” deb nomlangan festival fikrimning tasdig‘idir. Bunday festival mahallalarda, ish joylarida, oliy o‘quv yurtlarida, maktablarda o‘sha davralarga xos shaklini topgan holda tez-tez o‘tkazib turilishi kerak, degan fikr uyg‘ondi menda. Bugun kitob chiqaradigan nashriyotlar, korxonalar oldingiga qaraganda ancha ko‘paygan. Kitob sotadigan do‘konlar ham oz emas. Masalan, Toshkentning o‘zida 300 dan ortiq obod, shinam do‘konlar mavjud. Ko‘pincha ko‘cha-ko‘yda, mahallalarda “odamlar, yoshlar kitob o‘qimay qo‘ydi, qo‘lidan telefon tushmaydi”, degan gap-so‘zlar eshitilib qoladi. Lekin bu gap u qadar to‘g‘ri emas, vaziyatni haqqoniy ifodalamaydi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Ming kitob” loyihasi kitobxonlar doirasini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etyapti.

Shuni aytish joizki, kitoblarsiz yangi Renessans haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Renessans – bu o‘zi tanlagan soha bo‘yicha ko‘p kitob o‘qish, ayni paytda badiiy adabiyotni ham chetda qoldirmaslik degani.

Hozirgi kunda bizda ham “adabiyot agentlari” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Shunday agentliklarning ko‘payishi mualliflarimizning asarlari dunyo bo‘ylab tarqalishiga yordam beradi. Ayni paytda “Elektron kitoblar platformasi” degan soha shakllanib boryapti. Bu ham kitob targ‘ibotida muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Umrim bo‘yi kitob bilan birga, kitoblar orasida yashaganman, hozirgacha kitob o‘qimagan kunim menga juda qorong‘i bo‘lib ko‘rinadi. Faqat adabiyot emas, balki turli sohadagi, masalan, kibernetika, kiberxavfsizlik, jamiyat uchun nihoyatda muhim bo‘lgan ekotexnologiya, informatika haqidagi eng zarur kitoblarni ham topib o‘qishga harakat qilaman. Bularning bari ijodimga katta foyda beradi.

Bugun festival doirasida namoyishga qo‘yilgan kitoblarning soni va zalvorini chamalab, meni biroz vahm bosdi. Qachon bu kitoblarning tanqidchilari, tahlilchilari paydo bo‘ladi?! Chunki tanqid va tahlil paydo bo‘lsa, o‘quvchida qaysidir kitobni o‘qishga qiziqish uyg‘onadi. Albatta, bu tanqid va tahlil malakali bo‘lsa.



Erkin A’ZAM,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi:

– Noshirlik ishi va yozuvchilar bilan hamkorlik mavzusidagi davra suhbatida bitta fakt eshitdim: bir muallif o‘z hisobidan 37 ta kitob chiqaribdi. Xo‘sh, o‘zining hisobidan kitob chiqarish nimaga zarur ekan? Yoshim anchaga borib qoldi, lekin hisoblab ko‘rsam, shuning yarmicha ham kitob chiqarmagan ekanman. Meni hamma biladi, deb aytolmayman, lekin festivalda qatnashganlarning to‘qson foizi u odamni tanimasligi ko‘rinib turibdi. Biz bozorni bahona qilib shunday kitoblarni chiqaryapmiz-u lekin saviya yo‘q. Muqovaning saviyasini aytmasangiz, mazmun, badiiy saviya degan gaplar yo‘qolib ketdi. Endi, umidli dunyo. Hamma shoir ham bir ma’lum badiiy saviyada yozolmasa kerak, hamma yozuvchi ham, masalan, ma’lum bir talablarga javob berolmasa kerak. Lekin ich-etini yeb, bir kitobim chiqsa, deb orzu qiladi.

Bir paytlar G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda ishlaganman. Endigina bozor iqtisodiyoti kirib kelayotgan o‘sha paytlarda “Hamkor” degan redaksiya bo‘lardi. Biz shunaqalarning kitobini chiqarib, birinchi sahifasiga yozib qo‘yardik: “Kitob muallifning o‘z hisobidan chop etilyapti”. Bu narsalar hozir yo‘q bo‘lib ketdi. Davra suhbatida turli fikrlar qatorida o‘z hisobidan chiqarayotganlar kitobining soni 200-300 tadan ortmasligi haqida gaplar bo‘ldi. Xo‘p, o‘n dona chiqarganda ham uning saviyasi past bo‘lishi kerakmi? Bu kitob borasidagi umumiy siyosatimizga, ma’naviyatga, adabiy didga zarba emasmi? Kitobi nechta chiqishidan qat’i nazar, bu odamning san’atga da’vosi bor. San’at esa mukammal, bekamu ko‘st, faqat ma’naviy manfaatli bo‘lishi kerak.

Hozir men aytgan “O‘z hisobidan chop etilyapti”, degan gap yo‘qolib qoldi. Nihoyatda saviyasi past kitoblarning muqovasi chiroyli, ichini qarasangiz, muallif nashriyotga qanday keltirib bergan bo‘lsa, shunday ketgan. Kitob chiqarishning texnik ishlov berish, texnik bezak, degan qonun-qoidalari bor. Lekin birortasiga rioya qilinmagan. Shu ahvolda tom-tom kitoblar chiqyapti. Pulga chiqaradigan odam adabiyot olamida e’tirof etilgan bo‘lishi kerak. U chiqargan kitoblar haqida kitobxonlarning, adabiyotshunoslarning e’tiroflari chop etilgan bo‘lishi lozim... Xullas, kitob yozishda ham, uni chiqarishda ham professionallikdan uzoqlashdik. Vaholanki, kitob chop etish professionallarning ishi. Umuman, kitob chiqaradigan odam adabiy jamoatchilikning fikriga, Yozuvchilar uyushmasining munosabatiga asoslanishi kerak. Afsuski, hammamiz shoshyapmiz, qayoqqadir shoshib ketyapmiz.



Xurshid DO‘STMUHAMMAD,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi:

– Jannatiy tabiat qo‘ynida jannatiy mavzuga bag‘ishlangan anjuman bo‘ldi. Mutolaa madaniyati, kitobga muhabbat uyg‘otishga bag‘ishlangan juda ko‘p fikrlar aytildi. Yozuvchi, shoir, o‘qituvchi, kutubxonachi, talaba, kimligidan qat’i nazar, fikri bir joydan chiqyapti. Kitob o‘qish, o‘qishga undash, qiziqtirish har bir ongli insonning zimmasidagi katta vazifa.

Bitta savol bor. Eng muhim, eng og‘ir savol: yoshlarni qanday qilib kitobga muhabbatli qilib tarbiyalash mumkin? Bir qaraganda, oddiygina, jo‘ngina savol, lekin javobi murakkab. Prezidentimiz tashabbus ko‘rsatib, kitobxonlikni rivojlantirish, kitobxonlarni rag‘batlantirish yo‘lida hech narsani ayamayapti. Hammamiz yaxshi bilamiz, avval kitob chiqarish muammo edi. Hozir kitob do‘konlarida har jihatdan xilma-xil kitob bor. Kitob ko‘paydi. Endi targ‘ib qilishimiz kerak.

Kitob – mulk, bitmas-tuganmas xazina. Bitta kitobni o‘n marta o‘qib, o‘n xil gapirib berish mumkin. Kitobning sehri, mo‘jizasi shunda. Bugungi mavzuning muhimligi shundaki, bu yerda aytilgan har bir gap jadid otaxonlarimizning, munavvar insonlarimizning maslagiga nihoyatda mos tushadi. Ularning hammasi “O‘qi, o‘qish kerak”, deb o‘tib ketdi. Shunga qo‘shib aytaylik: o‘qish va o‘qish kerak, degan gap bugun, jadidlardan 100-120 yil keyin yana kun tartibiga chiqib turibdi “Jadid” gazetasi va sayti, umuman, jadid tushunchasi shuning uchun ham juda muhim.

Abduqayum YO‘LDOSHEV,
yozuvchi:

– Ancha yillar oldin Xitoyda yiliga mingdan ortiq adabiy mukofotlar joriy etilishi-yu ularning aksariyatining ta’sischilari xususiy sektor ekanligi haqida o‘qib qolganimda “Shunday katta davlat uchun ham bu ko‘p emasmi?” degan o‘yga borgandim. Tez orada Mo Yan “Musallas mamlakati” romani uchun Nobel mukofotini olganida savolimga javob topganday bo‘ldim. Ortiqcha kamtarlik qilib o‘tirmasak, bugungi kunda millatimiz adabiyoti darg‘alaridan Erkin A’zam, Usmon Azim, Murod Muhammad Do‘st, Xurshid Davron, Isajon Sulton, Nazar Eshonqul singari yozuvchi-shoirlarimizning asarlari dunyo adabiyotidan munosib o‘rin olishga loyiq emasmi? Deylik, Erkin akaning asarlari ingliz va fransuz tillariga o‘girilib, kitoblar taqdimoti Yevropada o‘tkazilgani bejiz emasdir.

Shu sababli bo‘lsa kerak, abadiyat xazinasiga bag‘ishlangan navbatdagi “Bitmas xazina” nomli festivalda adabiyotimizning eng yaxshi asarlarini xorijda chop etish, bu jarayonda “xashaki”, ya’ni pulini to‘lasangiz, bas, istagan “ijod namunangiz”ni chop etib beradigan “ko‘cha nashriyotlari” (qarang, ayni o‘zimizdagi vaziyat!) emas, xalqaro nufuzga ega, reytingi baland haqiqiy nashriyotlar bilan hamkorlik o‘rnatish lozimligi haqidagi mulohazalar juda o‘rinli bo‘ldi.

Anjumanda Javlon Jovliyev, Sa’dulla Quronov, Munira Norova singari yoshlarning aynan shu yo‘nalishdagi ma’ruzalari, olib borayotgan ishlari haqidagi hisobotlari e’tiborimizni tortdi. Fikrimizcha, festivalda yoshlar nafasi sezilib turdi.

Firuz ALLAYEV,
“Asaxiy books” nashriyoti asoschisi:

– 2017-yil Prezident farmoni bilan O‘zbekistonda noshirlik faoliyati litsenziyalanadigan faoliyat turidan olib tashlangan. Ya’ni bu degani nashriyot ochadigan odam litsenziya olishi shart emas. Natijada bu sohaga erkin kirib, ijod qilish imkoniyati yuzaga keldi. Bugun marketingda muammolar bor. Katta nashriyotda marketing jamoasi tuzish imkoni mavjud, kichik nashriyotlar esa asta-sekinlik bilan reklama berish orqali e’tiborni torta boshlashdi. Bu bozor qonuni – mahsulot sotish uchun uni targ‘ib qilish kerak. Xullas, kitob marketingi juda muhim masala. Chunki har qanday kitob reklamasi, uni o‘qish uchun ham reklama bo‘ladi.

Noshirlik va nashr sohasida muhim muammolar bor. Bugun muhokama qilingan mualliflik huquqining himoyasi masalasini olaylik. Ko‘p hollarda mualliflar bilan to‘g‘ri shartnoma qilinmaydi. Ularning ishlari yaxshi moliyalashtirilmagan bo‘ladi yoki kitoblarni muallifning ruxsatisiz chiqarib yuborishadi. Mana shu kabi muhim masalalar haqida gap ketganda turli xil yechimlar taklif qilindi. Juda ko‘p qonuniy masalalar muhokama qilindi. Ular orasida mualliflar bilan shartnoma tuzishda britancha tizimga o‘tish borasida ham fikr bo‘ldi. Bizda hozir muallif kelib nashriyot bilan shartnoma tuzadi. Nashriyot muallifga bir marta haq to‘laydi. Lekin britancha tizimda muallif har bir sotilgan kitobidan ulush oladi. Bu ulush shartnomada kelishilganiga qarab 10 foiz, 15 foiz bo‘lishi mumkin. Muhimi, kitob qancha ko‘p sotilsa, muallif shuncha ko‘p ulush oladi. Bu esa muallifga motivatsiya beradi, ya’ni u yana ko‘proq, muhimi yaxshiroq, sifatli ijod qiladi.

Zamira ISMOILOVA:

– Kitob yarmarkasi bo‘lishi haqidagi xabarni eshitdimu bolalarimni olib shu tomonga shoshdim. Farzandlarim uchun qiziqarli, sahifalari rang-barang kitoblar xarid qildim. Ba’zi nashriyotlar bolalarimning kitobga bo‘lgan mehrini ko‘rib, ertak kitoblardan sovg‘a qilishdi. Biz ota-onalar bu kabi kitob festivallari har faslda, hamma hududlarda bo‘lishini istaymiz. Iloji bo‘lsa, bunday ma’rifiy tadbirlarni ko‘chma shaklda, mahalla-ma-mahalla o‘tkazib borish kerak. Ana shunda kitob yarmarkalariga borolmagan yurtdoshlarimiz ham kitob ziyosidan bahramand bo‘ladi.

Gulchehra UMAROVA
yozib oldi.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 867
Lotin yozuvidagi adadi – 11 914
Media kuzatuvchilar – 19 006
Buyurtma: G – 940.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz